

**WO`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

TARIX FAKUL`TETI

TARIX KAFEDRASI

4-v kurs tarix bakalavr ta'lim yo'nalishi talabasi

AMINOV UMIDBEK KARIMBAEVICH

**MAVZU: YUNESKO TASHKILOTINING XALQARO
ALOQALARNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI VA
AHAMIYATI.**

(WO`ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Ilmiy rahbar:

**tarix fanlari nomzodi,
docent T.Kud`yarova**

NUKUS-2013

**MAVZU: YUNESKO TASHKILOTINING XALQARO ALOQALARNI
TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI VA AHAMIYATI.
(WO'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)**

REJA:

KIRISH

***I-BOB: YUNESKONING XALQARO TASHKILOT SIFATIDA
SHAKILLANISHI, RIVOJLANISHI VA HUQUQIY FAOLIYATI.***

*1.1. Yuneskonning xalqaro tashkilot sifatida shakillanishi, rivojlanishi va asosiy
yo'nalishlari.*

1.2 Yunesko doirasida yuritilgan huquqiy ijodkorlik xizmatlari.

***II-BOB: O'ZBEKISTONNING YUNESKO BILAN HAMKORLIK
ALOQALARINING O'RNATILISHI:***

2.1. O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lishi.

*2.2. O'zbekistonning BMT homiyligidagi xalqaro tashkilot – YUNESKO bilan
aloqalarining o'rnatilishi.*

***III-BOB: O'ZBEKISTONDA YUNESKO TASHKILOTINING
XALQARO ALOQALARNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI O'TKAZILGAN
TADBIRLARI***

3.1. Ilm, fan, madaniyat, kommunikatsiya va axborot.

*3.2. O'zbekistonda YUNESKO tomonidan tarixiy obidalarni saqlab qolish va
nayob o'bektlarni o'rganishdagi hamqorlik ishlari. «Asrlar sadosi» festivalining
o'tkazilishi.*

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

QO'SHIMCHALAR.

KIRISH

MAVZUNING DOLZARBLIGI: XXI asr bo'sag'asida jonajon Vatanimiz tarixida buyuk voqea - qadimiy O'zbekistonning eng yangi tarixini boshlab bergan voqea sodir bo'ldi. 1991 yil 31 avgust kuni bo'lgan Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida o'zbek xalqining xohish-irodasi bilan O'zbekistonning davlat mustaqilligi, ozod va suveren davlat - O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligi e'lon qilindi. 1 sentyabr O'zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni deb belgilandi. Xalqimizning asriy orzu-umidlari ushaldi, muqaddas maqsadi ro'yobga chiqdi, siyosiy mutelik va asoratdan qutildi. Dunyo XX asr so'nggi xaritasida yana bir mustaqil, ozod, suveren davlat - O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi.

O'zbekistonning davlat mustaqilligi xalqimizning uzoq yillar davomida olib borgan og'ir va mashaqqatli kurashining qonuniy natijasidir. Vatanimiz tarixi mustaqillik xalqimizga nihoyatda qimmatga tushganidan, bu yo'lda katta qurbonlar berilganligidan guvohlik beradi. Endilikda xalqimizning o'z taqdiri o'z qo'lida, o'z mamlakatining mustaqilligini mustahkamlash yo'lida astoydil mehnat qilmoqda.

O'zbekiston Mustaqil davlat sifatida xalqaro Konventsionalarga va BMT, EXShT, XMT kabi jahonning nufuzli tashkilotlariga a'zo bo'ldi¹.

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan kunidan boshlab jahondagi nufuzli mamlakatlar bilan davlatlararo alrqalar o'rnatish va uni rivojlantirish yo'lini tutdi, tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlarini belgilab oldi va BMT ning 15 ixtisoslashgan tashkilotlaridan biri- YUNESKO ga 1993 yilning 29 oktyabrida a'zo bo'lgan edi. Bitiruv mutaxassislik ishida Vatanimizning milliy istiqlol davridagi YUNESKO tashkiloti bilan aloqalarini va uning tarixini yoritishga kengroq o'rin berilgan.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, dunyodagi yirik, rivojlangan mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli siyosiy-diplomatik, iqtisodiy, madaniy aloqalari yoritilgan. O'zbekiston tarixan qisqa muddatda jahon hamjamiyatida munosib

¹ O'zbekiston: Mustaqillik odimlari. T., O'zbekiston 1995. 45-46 betlar.

o`rin egalladi, global masalalarda o`zining mustaqil ovozigga ega bo`lgan davlat darajasiga ko`tarildi.

Mamlakatimiz o`z mustaqilligina erishgandan keyingi davrdagi O`zbekiston tashqi siyosati, mamlakatimizni xalqaro maydondagi, ayniqsa xalqaro tashkilotlar doyrasidagi faoliyati tobora rivojlanayotgan va o`z navbatdagi uning tashqi siyosatida xalqaro tashkilotlarning ahamiyati ortib borayotgani bilan xarakterlanadi.

O`zbekiston respublikasi konstitutsiyasining 17 moddasida «O`zbekiston respublikasi xalqaro munosabatlarni to`la huquqli sub`ektidir» deb ko`rsatib ko`ylgani va ushbu moddaning ikkinchi qismida «Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlar, farovonligi va xavsizligini ta`minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo`stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin»² degan qoydani mustahkamlab quyilganligi mamlakatimizni dunyodagi nufuzli xalqaro tashkilotlarga to`la huquqli a`zo bo`lib kirishi uchun imkon tug`dirdi, hamda uni diploiatik tan olinishi va xalqaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarga jadal kirib borishi uchun huqiqiy zamin yaratadi. Tinchlik va xamkorlikni mustahkamlash dolzarb bo`lib turgan hozirgi davrda, jahon xalqlarning insonporvarlik g`oyalarni birlashtirishda, dunyomizni barqaror, xavfsiz qilishda xalqaro tashkilotlarning ahamiyati toboro oshib bormoqda.

O`zbekiston bilan YUNESKO hamkorligi masalasi o`rganilganda, ushbu hamkorlikning barcha qirralari kabi, uning xalqaro huqiqiy jihatlarini o`rganish ham bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

BITIRUV ISHINING MAQSAD VA VAZIFALARI: O`zbekistonning BMT homiyligidagi ta`lim, fan va madaniyat bilan shug`ullanuvchi xalqaro tashkilot – YUNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. 1993 yil 29 oktyabrda YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida O`zbekistonni YUNESKO ga a`zolikka qabul qilish marosimi bo`ldi. O`sha kuni Ulug`bek tavalludining 600 yilligini nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi. 1994 yil oktyabrda Parijda Ulug`bek haftaligi tantana bilan

² O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., 2003 yil, 6-bet.

o'tdi. Xiva va Buxoro YUNESKO ning jahon madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi. Bu ro'yxatda 411 ta ob'ekt bor.

1994 yil dekabrda respublikamizda YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi tashkil etildi, u idoralararo organ bo'lib, tarkibiga ta'lim, fan, madaniyat va axborot sohasidagi vazirliklar va idoralardan 49 kishi a'zo bo'ldi.

YUNESKO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o'rganish, tiklash va ommalashtirishga katta ahamiyat bermoqda. "Ipak yo'li - muloqot yo'li" deb nomlangan yirik tadqiqotda Markaziy Osiyoga birinchi darajali ahamiyat berildi. 1995 yil iyul oyida YUNESKO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi. YUNESKO Bosh direktori Federiko Mayorning O'zbekistondagi rasmiy tashrifi chog'ida 1995 yil iyul oyida mazkur institut ochildi. YUNESKO bobomiz Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qildi va 1996 yil oktyabrda Parijda Amir Temurga bag'ishlangan bir haftalik xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Amir Temur tavallud topgan Shahrisabz shahri YUNESKO ning madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi.

1997 yilda jahon madaniyatning durdonalaridan hisoblangan Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik muborak sanalari Parijda keng nishonlandi, xalqaro anjuman va ko'rgazmalar o'tkazildi. Bu O'zbekiston bilan BMTning nufuzli xalqaro tashkiloti YUNESKO o'rtasidagi hamkorlikning yana bir yorqin ifodasi bo'ldi. 1997 yil 19-20 oktyabr kunlari Vatanimizda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan ulkan tantanalarda BMT, YUNESKO va boshqa ko'plab xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning elchilari va vakillari, bir qator mehmonlar ishtirok etdilar.

Respublikamiz Prezidenti I.Karimov «YUNESKO timsolida eng muhim insonparvarlik masalalarining echimiga ijodiy yondashishda harakatlanuvchi kuch bulib xizmat qiladigan o'ziga xos, betakror xalqaro tashkilotni kuramiz»³- degan edi. Shunki, hozirgi kungacha inson manfaatlarini ko'zlab ko'plab xalqaro hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular universal va mintaqaviy xarakter kasb etadi. Jumladan, BMT

³ Karimov I.A. «Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz». 7 jild. T., «O'zbekiston». 1999 yil 205-bet.

Bosh Assambleyasi tomonidan 70 ga yaqin, Evropa Kengashi tomonidan 160 dan ziyod, YUNESKO tomonidan 70 dan ortiq, evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti tomonidan 30 dan ortiq, turli mintaqaviy xalqaro tashkilotlar tomonidan ham ko'plab inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, deklaratsiyalar, paktlar qabul qilindi. Bugungi kunda hammasi bo'lib inson huquqlari bo'yicha 400 ga yaqin xalqaro hujjat mavjud. Bu xalqaro hujjatlarda inson huquqlariga oid jahon andozalari belgilab qo'yilgan va ularning milliy qonunlardan ustuvorligi tamoyili aksari davlatlar tomonidan tan olingan⁴.

BMT ning ixtisoslashgan muassasalari tizimi mavjud bo'lib O'zbekiston ularning deyarli barchasi faoliyatida ishtirok etmoqda. Shu jumladan, ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha BMT YUNESKO ning faoliyatida ishtirok etish O'zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston bilan YUNESKO hamkorligi masalasi o'rganilganda, ushbu hamkorlikning barcha qirralari kabi, uning xalqaro huquqiy jihatlari va tarixiy ildizlarini o'rganish ham bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Uni quidagilarda ko'ramiz:

- birinchidan, YUNESKO ning xalqaro tashkilot sifatidagi maqomi, uning xalqaro huquqdagi huquq ijodkorlik faoliyati ilmiy tadqiqotlarda etarlicha o'rganilmagan. Hozirgi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki jahonda YUNESKO to'g'risida ko'plab ma'lumotlar yig'ilgan va turli maqolalar va risolalar yozilgan bo'lsa da, ammo ularning aksariyati, YUNESKO ni turli tadbirlariga bag'ishlanib, ushbu tashkilotni xalqaro xuquq sub'ekti nuqtay nazaridan, uning xalqaro tashkilot sifatidagi faoliyatini etarli darajada ochib bermaydi;

- ikkinchidan, YUNESKO xalqaro hujjatlarning xuquqiy tabiati etarli darajada o'rganilmagan bo'lib, XXI asrga kelib jahon hamjamiyati to'qnash kelayotgan dolzarb global muammolarning oldini olish va bartaraf etishda ayniqsa katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki ularni o'rganish hozirgi zamon xalqaro

⁴ *Международное право в документах: Учеб.пособие. Сост.: Н.Т.Влатова, Г.М. Мелков. – 2-е изд., перереб. и доп. – М.: Инфра, 1997. С-103.*

vaziyatini tadbiq etish mumkinshiligin beradi va YUNESKO ning O`zbekiston bilan hamkorligining tarixiy ahamiyatini oshib berishga yordam beradi;

- uchinchidan, YUNESKO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o`rganish, tiklash va ommalashtirishga katta ahamiyat bermoqda. "Ipak yo`li - muloqot yo`li" deb nomlangan yirik tadqiqotda Markaziy Osiyoga birinchi darajali ahamiyat berilishi;

- turtinchidan, YUNESKO tomonidan 70 dan ortiq ko`plab inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar, konventsiyalar, deklaratsiyalar, paktlar qabul qilindi. Bularning tarixiy ahamiyatini urganish va tadbiq eish;

- beshinchidan, YUNESKO ning jahon madaniy qadriyatlar ro`yxati dasturiga kiritilgan respublikamizning 411 ta ob`ekti bor. Bu dasturning bugungi kundagi ijasini urganish.

Bularning barchasi bitiruv malakaviy ishiga ushbu mavzuni tanglashga asos bo`ldi.

MAVZUNING TARIXSHUNOSLIGI: : Zotan, har qanday matbuot nashri — hoq jurnal, hoq gazeta bo`lsin, zamon tarixini yozishga, bu tarixni yaratishga hissa kushadi, xalqmiz tarixining muayyan jihatlarini aniqlashtirib, oydinlashtirishga yordam beradi.

Bitiruv mutaxassislik ishining yozilishida Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, chiqib so`zlashari metodologik asos sifatida urganildi. Shunungdek, «O`zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi» (T., «O`zbekiston» 2003), Ustav YuNeSKO / Mejdunarodnye normativnye akty YUNESKO. M.:Logos 1993, «O`zbekistonnig yangi tarixi» 3-tom (Milliy mustaqillik davri T., «O`bekiston» 1999), Q.Usmanov, M.Sodiqov va S.Burxanovalar muallifligidagi «O`zbekiston tarixi» (Darslik T., 2006), G.Hakimovning «O`zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti» nomli risolasi va boshqada adabiyotlardan foydalanildi.

MAVZUNING ILMIY YaNGLIKLARI: Mustaqillik sharofati bilan O`zbekiston respublikasinning BMT homiyligidagi ta`lim, fan va madaniyat bilan shug`ullanuvchi xalqaro tashkilot — YUNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. Bu aloqalarni yangicha yondashib, yangi

davlatchilik kontsepsiyasi va yangi asl manbalar asosida yoritish, chuqur tahlil qilish va o'rganish hamda ilmiy aylanishga tushirish.

MAVZUNING BAJARILISH USUL VA METODLARI: Tadqiqotning ilmiy-uslubiy asoslarini belgilashda bir necha usullarga murojaat qilindi. Mavzuni yoritishda qo'llaniladigan asosiy usullarimizdan birini tavsifiy usul tashkil etadi. Bundan tashqari butun mavzuni yoritish jarayonida ko'plab o'rinlarda qiyosiy metodga ham murojaat kilindi.

TADQIQOTNING NAZARIY-AMALIY AHAMIYATI: Tadqiqot maktablar va kollejlarda o'quvchilari uchun O'zbekiston bilan YUNESKO hamkorligi masalasini o'rganishda kerakli ma'lumotlar bera olishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu tadqiqot oliy o'quv yurtlari uchun mukammal darsliklar yaratish yo'lida amaliy yordam beradi hamda talabalarga maxsus kurs sifatida o'qilishi mumkin.

MAVZUNING TADQIQOT OB'EKTI: O'zbekiston bilan YUNESKO hamkorligi masalasi o'rganilganda, ushbu hamkorlikning barcha qirralari kabi, uning xalqaro huquqiy jihatlari ham bugungi kundagi dolzarb masalalari hisoblanadi. YUNESKO tomonidan ota-babalarimizning yubeley kunlarining dunyo miqyosi ko'lamida o'tkazilishi.

MALAKAVIY ISHNING APROBATSIYASI: Malakaviy bitruv ishi Ajinyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining Tarix kafedrasi majlisida, Tarix fakul'teti ilmiy-usluviy kengashida qarab chiqildi va himoya qilishga tavsiya etildi..

MALAKAVIY ISHNING TUZILISHI: Ish kirish, har biri bir nechta paragraflardan iborat 3 bob, umumiy xulosalar, qo'shimchalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat va xajmi 73-bet.

I-BOB: YUNESKONING XALQARO TASHKILOT SIFATIDA SHAKILLANISHI, RIVOJLANISHI VA HUQUQ IJODKORLIK FAOLIYATI.

1.1. Yuneskoning xalqaro tashkilot sifatida shakillanishi, rivojlanishi va asosiy yo'nalishlari.

Xalqaro tashkilotlar to'g'risida fikr yuritganimizda Birlashgan Millatlar Tashkilotining o'рни va roliga to'xtalib o'tilsa ayni mudaa bo'lar ei. Chunki xalqaro munosabatlarni rivojlantirishda uning tutgan o'рни va ahamiyati juda ham kattadir.

Ushbu tashkilot to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islam Karimov BMSH Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi nutqida «Birlashgan Millatlar Tashkiloti barcha elatlarning, mintaqalarning eng muhim muammolarini muhokama qilish va echish uchun tuzilgan nayob tashkilotdir»⁵ deb ta'qidlagan edi.

Bu tashkilotning tashkil etilishining asosiy bosqichlari 1941-1945 yillarga to'g'ri keladi. BMT ning tashkil topishi, tuzilishi, maqsadlari, vazifalari va uning O'zbekiston bilan o'zaro munosabatlarini G.Xakimov «O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti» nomli risolasida BMT ning ixtisoslashgan tashkilotlariga xususan YUNESKO ga to'xtalib o'tadi va umumiy masalalarga e'tiborni qaratadi.

Shu tariqa xalqaro maydonda BMT tuzimi shakllanadi. BMT ning ixtisoslashgan muassasalari doimiy ishlovchi xalqaro hukumatlararo tashkilotlar bo'lib, ularni tuzish to'g'risidagi, ta'sis hujjatlari (nizomlar, shartnomalar) doirasida cheklangan muddatda ishlaydi va ular iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy gumanitar mazmundagi muassasalarga bo'linadi.

BMT Nizomining 57, 59, 63 va 70 moddalarida BMT ning asosiy yo'nalishlari va xalqaro tashkilotlarga kiruvchi ixtisoslashgan muassasalarning huquqiy xolatlarida va Nizomiga asosan tashkilot bilan bog'lik taraflari keltirilib o'tilgan.

⁵ *Islam Karimov. \ BMSH Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi nutqi. \ Xalq so'zi. 1993 .N27(49)*

BMT ixtisoslashgan muassasalrining faoliyati ko`yidagi shakllarda rivojlandi:

1) Maxsus sohalrda davlatlar munosabatlarini tartibga solish uchun bir hil normalar va qoidalar yaratish maqsadida maxsus masalalar bo`yicha xalqaro konventsiyalar va reglamentlari ishlab chiqish, masalan, aloqa sog`liqni saqlash, madaniyat va boshkalarda;

2) bu sohalarda davlatlar faoliyatlarini muvofiqlashtirish;

3) ozod bo`lgan mamlakatlarga o`z faolirlari doirasida texnik yordam ko`rsatish;

4) Axborot almashish va boshqalar.

BMSh ning ixtisoslashgan tashkilotlari mo`ayan sohalar bo`yicha davlatlar hamqorligini muvofiqlashtirish va rivojlantirish g`oyasida tuzilishi bilan boshqa xalqaro tashkilotlardan farq qiladi.

Hozirgi kunda BMT ning ixtisoslashgan tashkilotlari guruhiga quyidagilar kiradi- Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro elektr aloqasi ittifoqi, Butunjahon sog`liqni saqlash tashkiloti, Butunjahon meteorologiya tashkiloti, Butunjahon pochta tashkiloti, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti, BMT ning Oziq-ovqatlar va qishloq xo`aligi tashkiloti, Xalqaro qishloq xo`jaligi taraqqiyoti jamg`armasi.

Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Birlashgan Millatlarning sanoat taraqqiyot tashkiloti, Xalqaro taraqqiyot assosatsiyasi, Xalqaro dengiz tashkiloti, Xalqaro Atom energiyasi agentligi va ilm, fan va madaniyat masalari bo`yicha tashkilot YUNESKO.

Bitiruv mutaxassislik ishining asosi bo`lgan ushbu tashkilot YUNESKO (United Nations Educational Scientific and Cultural Organization- UNESCO) haqida fikr yurtamiz:

BMSh ning fan, ta`lim va madaniyat sohasida ixtisoslangan tashkiloti- YUNESKO ning tashkil topishida ko`yidagi xalqaro tashkilotlar unga o`tmishdosh bo`lgan:

1. Intellektual hamqorlik bo'yicha xalqaro qo'mita (The International Committee of Intellectual Co-operation ICIC) Jeneva 1922-1946 yy;

2. Intellektual hamqorlik bo'yicha xalqaro institut (The International Institute of Intellectual Co-operation) Parij, 1925-1946 yy.

YUNESKO Frantsiya hukmati tomonidan tashkil etilib 1921 yilda Millatlar Ligasi doyrasiga maxsus tashkil etilgan Intellektual hamkorlik bo'yicha xalqaro qo'mitasining va 1926 yili Millatlar Ligasi ixtiyorige o'tkazilgan xalqaro intellektual hamqorlik institutining tabiiy davomisi hisoblanadi. Qo'mita yigirmata a'zoga ega bo'lib, ular intellektual hamqorlikka oid xalqaro masalalarni o'rganish bilan shug'ullanar edi. Intellektual hamqorlik bo'yicha xalqaro institut esa Millatlar Ligasining maslahat organi bo'lib, uning vazifasi intellektual hamqorlik ko'mitasiga ekspertlar majlislarini tayyorlash va o'tkazish, maorif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tadqiqot o'tkazishdan iborat edi.

3. Xalqaro ta'lim byurosi Jeneva, 1925-1968 yy. 1942 yil noyabrda Londonda ittifoqchi davlatlarning ta'lim vazifalarning ta'lim sohasidagi hamqorlik masalalari bo'yicha konferentsiyasi boshlandi va u 1945 yil 5 dekabrgacha davom etdi. Ushbu konferentsiya davomida BMT doyrasida maorif va madaniyat masalalari bo'yicha tashkilot tuzish to'g'risida takliflar kiritilgan edi⁶. BMT ning ixtisoslashgan muassasi sifatida YuNeSKo ni tashkil etish to'g'risida urushdan keyin Londonda 44 davlat vakillaridan iborat konferentsiyada kelishilib olindi va uning Nizomi qabul qilindi.

1945 yil 16 noyabrda YUNESKO ning Nizomi imzolandi va tayorgarlik komissiyasi tuzildi. Bu komissiyaga konferentsiyadagi barcha a'zo davlatlarning vakillari kirgan. Uning birinchi bosh direktori bo'lib angliyalik professor biolog Djulian Xaksli tayorlandi.

Tayorgarlik komissiyasiga ko'yidagi vazifalar yuklatilgan edi. Tashkilot Bosh konferentsiyasining 1-sessiyasi muddatini belgilash, konferentsiya kun

⁶ Levitin L. *O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. -T.: O'zbekiston, 2001.*

tartibini, tashkilotini va dasturiy ishlariga va byudjetiga oid tavsiyalarni tayyorlash, ta'lim fan va madaniyat sohasida urush vaqtida zarar ko'rgan xududlarga zaruriy yordam bo'yicha kerakli choralarni ko'rish⁷. YUNESKO Bosh konferentsiyasining birinchi sessiyasi 1946 yil 19 noyabrda Parijda bo'lib o'tdi. 1946 yil 14 dekabrda BMT ning Bosh Assambleyasi BMT bilan YUNESKO o'rtasidagi kelishuvni tasdiqladi va u ta'lim, fan va madaniyat sohasida ixtisoslashgan muassasa sifatida BMT tizimiga kirdi⁸. YUNESKO tashkil topgan paytda uning 28 a'zosi bor edi, 2004 yilga kelib, uning a'zolari 190 taga etti⁹. YUNESKO ning bosh vazifasi adolat, qonunchilik va inson huquqlarini hurmat qilishni ta'minlash yo'lida xalqlarning keng hamqorligini rivojlantirishga asoslanib, insonlar ongida tinchlik g'oyalari va umuminsoniy qadriyatlarni sindirish hisoblanadi.

Tashkilotning vakolatiga ta'luqli bo'lagan masalalarni, faoliyatini asosiy yo'nalishlardan kelib chiqqan holda qo'idagi tamoyillarga bo'lish mumkin:

- * Birinchidan, inson huquqlarini himoya qilish va tinchlikni o'rganish;
- * Ikkinchidan, bilimlarni tarqatish, axborot almashish, odamlar va xalqlar o'rtasida aloqalar o'rnatish;
- * Uchunchidan, inson va jamiyatni rivojlantirish;
- * To'rtinchidan, inson va tabiat o'rtasida uyg'unlik va barqarorlik.

Endi YUNESKO ga davlatlarning a'zo bo'lishlarini o'rganib chiqsag va tadbiq etsag¹⁰:

Yaponiya- 1953 yil

Germaniya Federativ Respublikasi- 1953 yil

⁷ G.Xakimov «O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti». T.: G.Gulom nomidagi «Adabiyot va sanaat» nashriyoti. 2001. 12-bet

⁸ YUNESKO i O'zbekiston. /Informatsionnyy byulleten`. Parij 1996. S-5.

⁹ Usha joyda C-6

¹⁰ Clare Wells, *the UN UNESD and the politics of knowledge* London: The Macmillan press.

Ispaniya- 1953 yil

SSSR- 1954 yil (Yunesko ning tashkil topishida ishtirok etmagan)

Ukraina- 1954 yil

Belorussiya -1954 yil

Xitoy Xalq Respublikasi- 1971 yil

Germaniya Demokratik Respublikasi- 1971 yil va hokoza.

YUNESKO ning davlatlardan iborat asosiy a`zolaridan tashqari uning 4 ta assotsiyaviy a`zolari (uzining mustaqil tashqi siyosatini olib bora olmaydigan sub`ektlar bo`lib, ular Aruba, Britaniya Virkiniya orali, Makao, Niderlandiya Antillari) majuddir¹¹.

Shunday qilib, YUNESKO a`zolidini ikki turga bo`lish mumkin:

—YUNESKO ga a`zo davlatlar;

—YUNESKO ning assotsiyaviy a`zolari.

YUNESKO Nizomiga muvofiq har bir mamlakatda YUNESKO ishlari bo`yicha Milliy komissiya mavjud. Ushbu institut BMT tizimidagi boshqa ixtisoslashgan tashkilotlarda mavjud emas.

Milliy komissiya vazifasi YUNESKO Vakolatiga aloqasi bor bo`lgan va ushbu tashkilot dasturlarini u yoki bu darajada bajarishda ishtirok etish hoqishini bildirgan mamlakat ichidagi tashkilotlar va muassasalar faoliyatlarini muvofiqlashtirishdir<sup>12</sup>. Unga ko`yidagi to`rtta funktsiya yuklangan:

* Hukumatga maslahatlar berish va jamoatchilikni xabardor qilish;

A`zo davlatlarning YUNESKO bilan aloqasini har tamonlama rivojlantirish; YUNESKO dasturlarin ishlab chiqishda va amalga oshirishda ishtirok etish;

¹¹ Symonides J., Volodin V. *UNESKO and Human Rights standard- instruments, major meetings and publicati.* 1999

¹² Qarang: *Ta`lim va madaniyat masalalari bo`yicha BMT Ustavi. / YUNESKO xalqaro me`yoriy hujjatlari to`plami. T.: Adolat 2004, B-15*

* O`z tadbirlarini (ko`rgazmalar, konferentsiyalar, kitoblar nashr etish va boshqalar) amalga oshirish.

Masalan YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi O'zbekistonda YUNESKO dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda tegishli vazirliklar, idoralar va muassasalarning faoliyatlarini muvofiqlashtirib boradi.

Uning tarkibiga ta'lim, fan, madaniyat va axborot sohasi bilan shug'ullanuvchi vazirliklar, idoralar, ilmiy ijodiy va jamoat tashkilotlarining rahbar vakillari kiradi. Bu komissiyaga O'zbekiston Respublikasi Bosh vazir o'ribosari rahbarlik qiladi. Ushbu komissiya 1994 yil 29 dekardan tashkil etilgan.

YUNESKO a'zosi bo'lgan 178 mamlakatda YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyalar mavjuddir¹³. Milliy komissiyalar davlat maslahat organlari sifatida ishlamoqda. Jahondagi milliy komissiyalar faoliyati taqlil etilganda ularni amaliyotda shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin bo'ladi, ya'ni nafaqat YUNESKO faoliyatiga oid xalqaro hujjatlarni hayotga tadbiq etish bilan shug'ullanuvchi, balki YUNESKO doirasida norma ijodkorlik faoliyatiga ta'sir ko'rsata oladigan va bu jarayonda faol ishtirok etayotgan milliy komissiyalar.

Masalan YUNESKO ishlari bo'yicha Rossiya umummilliy komissiyasi, Koreya milliy komissiyasi. Shuningdek faqat YUNESKO ning normativ hujjatlarini hayotga tadbiq etish bilan shug'ullanuvchi milliy komissiyalar.

Nizomning VII moddasiga ko'ra YUNESKO a'zo davlatlarga ushbu milliy komissiyalarni tuzishda yordam beradi. Undan tashqari YUNESKO bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantirishda a'zo davlatlarning YUNESKO qoshidagi doimiy vakolatxonalari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, xalqaro tashkilotlarda doimiy vakillik instituti davlatlarning chet eldagi diplomatik organi hisoblanib, uning xalqaro tashkilot bilan aloqasining mustahkamlanishiga va tashkilot doirasidagi ushbu davlatning faoliyatini yanada kengaytirishga va ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi.

¹³ ЮНЕСКО и Узбекистон. Информационный бюллетень. Париж. 1996, С-17.

Doimiy vakolatxonalarning asosiy vazifalari yuborayotgan davlat va tashkilot o`rtasidagi aloqani saqlash, yuborayotgan davlatning tashkilot faoliyatida ishtirokini ta`minlash, yuborayotgan davlatning tashkilotga nisbatan bo`lgan manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Doimiy vakolatxonaning o`z davlati fuqarolarining diplomatik himoya qilish, konsullik vazifalari yo`q¹⁴.

Doimiy vakolatxona doimiy vakolatxona boshlig`i, diplomatik xodimlar, ma`muriy texnik xodimlardan iborat bo`ladi. Bunday institut BMT va xalqaro mehnat tashkiloti, jahon sog`liqni saqlash tashkiloti, YUNESKO kabi ixtisoslashgan tashkilotlardan mavjud. Hozirgi kunda, 165 mamlakat YUNESKO Bosh qarorg`ohi Parij shahrida YUNESKO qoshidagi Doimiy vakolatxonasiga ega.

YUNESKO bilan hamqorlik aloqalari olib borilganda Doimiy vakolatxona hamqorlikning siyosiy va huquqiy tomonlarina ma`sul hisoblansa, Milliy komissiyalar esa hamqorlikning ta`lim, fan va madaniyat sohalariga ma`sul hisoblanadi.

YUNESKO xalqaro tashkilot sifatida, o`zining tashkiliy tuzilmasiga ega. Uning asosiy rahbar organlari Bosh konferentsiya, Ijroiyy ko`mitasi va Kotibiyat hisoblanadi. Ushbu organlar YUNESKO faoliyatida rahbarliknn amalga oshiradi.

YUNESKO organlari xususida fikr yuritilganda, uning inson huquqlarini himoya qilish bilan shug`ullanuvchi mexanizm to`g`risida ham alohida to`xtalib utish maqsadga muvofiqdir. YUNESKO vakolati doirasida inson huquqlarini amalga oshirish bilan bog`liq holatlar va masalalarga tegishli xabarlarni o`rganib chiqish kiradi. Huquqni muhofaza qilish ko`mita faoliyatida markaziy o`rinni egallaydi. Ko`mita hozirda inson huquklari bilan shug`ullanuvchi xalqaro tashkilotlar tizimida o`zining o`rnini topgan.

YUNESKO tashkilotining hozirgi davrdagi faoliyatiga baho berer ekanmiz, ko`yidagilarga ham alohida to`xtab o`tish lozim bo`ladi. Ya`ni 588 nafar nohukumat tashkilot YUNESKO bilan rasmiy munosabatlar o`rnatgan.

¹⁴ *Устав ЮНЕСКО. /Международные нормативные акты ЮНЕСКО. М.:Логос 1993*

Chuni qayd etish lozim, xalqaro nodavlat tashkilotlari YUNESKO da uch kategoriyada maslahat maqomiga ega:

A) maslahat va hamqorliq qiluvchi;

V) Axborot va maslahat qiluvchi;

S) O`zaro axborot kategoriyasi¹⁵.

YUNESKO xalqaro nodavlat tashkilotlariga moliyaviy yordam ko`rsatish mumkin.

Dunyodagi 5700 dan ko`proq o`rta maktablar YUNESKO ning Birlashgan maktablar dasturiga a`zosi bo`lib, ular yosh avlodni bag`rikenglik va xalqaro bir-birini tushinish g`oyalari asosida tarbiyalashiga ko`mak bermoqda.

4800 dan ortiq YUNESKO klublari Uyushmasi va Markazlari tashkilotning g`oyalarini tarqatishda xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda YUNESKO 50 dan ortiq byulleten va 20 dan ortiq davriy nashrlar chiqardi. Ular orasidagi eng mashqurlari «Kelajak» (ta`lim sohasidagi haftalik), «Muzey», «Ijtimoiy fanlar xalqaro oynamasi», «Tabiat va resurslar», «Mualliflik huqiqi bo`yicha byulleten», «Ta`lim byurosi xalqaro byulleteni», «Fan va jamiyat» kabilardan iborat.

«**YUNESKO KUR`ERI**» jurnali esa 30 tilda nashr etiladi. Ammo, moliyaviy muammolar tufayli jurnalning hozirgi kundagi nashri to`xtatilgan. YUNESKO har ekki yilda bir marotaba chop etiluvchi ta`lim, fan, madaniyat va kommunikatsiya holati haqida umumjahon ma`ruzalarni chop etadi.

YUNESKO «Insoniyatning ilmiy va madaniy rivojlanish tarixi» (6-jild), «Islom madaniyatining turli tomonlari» (6-jild), «Lotin Amerikasi davlatlari tarixi» (7-jild), «Karib havzasi davlatlari tarixi» (6-jild), «Afrika umumiy tarixi» (8-jild), «Markaziy Osiyo tsivilizatsiyasi tarixi» (6-jild) kabi fundamental nashrlar chop etmokda¹⁶.

¹⁵ Qarang: Ta`lim va madaniyat masalalari bo`yicha BMT Ustavi. / YuNeSKO xalqaro me`yoriy hujjatlari to`plami. T.: Adolat 2004, B-15

¹⁶ ЮНЕСКО и Узбекистон. Информационный бюллетень. Париж. 1996, С-29.

Tashkilot faoliyatini o`rganar ekanmiz, u hozirgi kunda ko`yidagi asosiy yo`nalishlarda olib borilmoqda.

****birinchi yo`nalish – Ta`lim va kelajak.** YUNESKO ning ustuvor yo`nalishi hozirgi zamon talablariga mos umum boshlang`ich ta`limini va oliy ta`limni rivojlantirishni ta`minlab borishdan iboratdir. Undan tashqari YUNESKO o`qituvchilarni, maorif sohasidagi ma`muriyat xodimlarni tayorlashga, shuningdek, mahalliy maktablarning qurilishiga va jihozlanishiga ko`maklashadi. Bu sohada YUNESKO ning «Butun umr mobaynida ta`lim barcha uchun» dasturi muhim ahamiyatga egadir.

**** Ekkinchi yo`nalish-** Ilm, fan va texnologiyaning barcha sohalarida integratsiyalanuvi. Bu masalaga oid 1999 yil oktyabr-noyabr oylarida bo`lib o`tgan YUNESKO ning 30 sessiyasida alohida to`xtalib, o`zining asosiy yo`nalishlaridan biri deb ko`rsatilgan. Bunla ilm, fan va texnologiyalarning barcha sohalarida ayollarning rolin oshirish va ularni qullab-quvvatlash.

Shuningdek, bo`lajak avlodni atrof-muhitga va barqaror taraqqiyotga, madaniy rang-baranglikni rivojlantirishga ko`maklashishga, ilmiy natijalarga taoluqli, etiqaviy normalarni ishlab chiqishga va texnik axborotlarga kirishga ko`proq e`tiborni qaratish.

**** Uchinchi yo`nalish-** Ijtimoiy fanlarni rivojlantirish. YUNESKO ayollar ahvolini yaxshilash sohasi bo`yicha o`qitish va ko`maklashish yoshlar bilan bog`liq muammolar ya`ni ortirilgan immunitet tansiqqligi sindromi (OITS) dan ogohlantirish masalalarini o`qitish kabi tadbirlarga yordam beradi.

**** To`rtinchi yo`nalish-** Madaniyat: o`tmish, hozirgi zamon va kelajak. YUNESKO ning madaniy faoliyati madaniyat yodgorliklarni himoya qilishga qaratilgan. Jahon yodgorliklari ob`ektlari ruyxatiga 100 ta mamlakatda joylashgan 400 dan ortiq madaniyat va tabiat yodgorliklari kiritilgan.

Tashkilot ijodni va ijodiy faoliyatni, madaniy o`z-o`zini asrashni rag`batlantiradi.

**** Beshinchi yo`nalish-** Kommunikatsiya, axborot va informatika inson xizmatida. YUNESKO millatlar orasida fikrlarning keng almashishini va axborot erkinligi, fikrlar xilma xilligi va ommaviy axborot vositalarining rang-barangligini tamoyillarini rag`batlantirish maqsadlarida rivojlanayotgan mamlakatlarga o`zlarining infratuzilmasini ko`rishda yordam ko`rsatadi.

**** oltinchi yo`nalish-** Inson huquqlari, inson huquqlari va demokratiya. Kommunizmning barcha turidagi ko`rinishlariga qarshi kurashish kabi boshqada masalalar¹⁷. Yarim asrdan ortiq davr mobaynida YUNESKO adolatni, insonparvarlikni, inson huquqlari va asosiy erkinliklarni umumbashariy xurmat qilishni har tomonlama ta`minlashga xarakat qilib, ta`lim va madaniyat va kommunikatsiya sohasida xalqlar o`rtasidagi hamqorlikni rivojlantirishga yordam bermoqda.

Dunyoda jahon madaniyati va intellektual merosini asrash ishida, yosh va rivojlanayotgan davlatlarda milliy madaniyatlarni qayta tiklashda davlatlar o`rtasidagi o`zaro tushunishni rivojlantirish ishiga YUNESKO ning ko`shgan xissasi yuqori baholanmoqda. Tashkilot hozirgi vaqtda o`z faoliyatini jahonda o`zgarishlariga moslashtirmoqda va a`zo davlatlarga o`z vakolati doirasida hozirgi zamonning eng muhim muammolarini echishda yordamini bermoqda.

YUNESKO ta`lim, fan va madaniyat sohalarida tinchlik va umumbashariy gullab-yashnash ildizlarini hamqorlik va o`zaro ma`naviy aloqalarni ko`paytirish va kuchaytirish yo`li bilan tarqib qilmoqda. Uning ushbu kundalik faoliyati o`zaro bir-biriga bog`liq bo`lgan maqsadlarga qaratilgan.

Taraqqiyotga yo`naltirilgan YUNESKO ning strategiyasi ko`dagilardir:

— barcha uchun to`xtovsiz ta`limga ko`maklashish;

¹⁷ *Устав ЮНЕСКО. /Международные нормативные акты ЮНЕСКО. М.:Логос 1993*

— bilimlarni olish va tarqatishni rivojlantirishga ko`maklashish;
— madaniy kadriyatlarning rolini oshirish va ijodni rag`batlandirish;
— axborotning erkin tarqalishi va kommunikatsiyani rivojlantirishga ko`maklashish;

— tinchlik, inson huquqlari, demokratiya, tolerantlik va xalqaro hamjamiyatlik sohasida ta`limni rivojlantirish;

— inson huquqlarini rivojlantirish va kamsitishga qarshi kurash;

— demokratik jarayonlarni ko`llab- kuvatlash va mustahkamlash;

— madaniy fikrlar xilma-xilligi va madaniyatlar o`rtasidagi muloqatlarni rivojlantirish;

— mojaralarning oldini olish va mojaralardan keyingi tinchlikni o`rnatiga ko`maklashishdan iborat¹⁸.

1999 yildan boshlab, tashkilotga ko`proq vakolatlilik, samaradorlilik, taniqlilik va faoliyatiga hisobdorlik berish maqsadida YUNESKO da radikal islohotlar boshlandi. Bu maqsadda ko`yidagi yo`nalishlarda uchta ishchi guruh tuzildi: «Boshqaruv», «Markazlashmaslik» va «YUNESKO XXI asrda»¹⁹.

YUNESKO jahonning eng yirik, ko`zga ko`ringan tashkilotiga aylandi va u hozirgi kunda insonning ta`lim, fan, madaniyat va kommunikatsiya sohasini, shuningdek shu sohalar bilan boshqa da sohalardi qamrab olmaqda.

YUNESKO ning maqsadi insoniyatni aql-zakovat va ahloqiy birligiga asoslangan barqaror tinchlikni barpo qilish bo`lib, uning dasturlari dunyo madaniyatiga ko`maklashish, barqaror taraqqiyot va insoniyat taraqqiyoti uchun yo`naltirilgan, deb xulosa qilsaq yanglishmagan bo`lamiz.

Chunki, u barcha insonlar uchun ta`lim yutuqlarini to`playdi, ekologik tadqiqotlar uchun xalqaro ilmiy dasturlar tuzishga ko`maklashadi, milliy madaniyatlarning ruybga chiqishini qo`llap-quvatlaydi, dunyoviy meros

¹⁸ ЮНЕСКО и Узбекистон. Информационный бюллетень. Париж. 1996, С-29.

¹⁹ Устав ЮНЕСКО. /Международные нормативные акты ЮНЕСКО. М.:Логос 1993

hisoblangan boyliklarni saqlash va kengaytirishga, axborotlar oqimi va matbuot erkinligiga yordam beradi, rivojlanayotgan davlatlarning kommunikatsiya imkoniyatlarini oshirishga ko'maklashadi.

XX asrning oxiri XXI asrning boshlaridagi jahon siyosiy xaritada o'zgarishlar va tashkilotda amalga oshirilayotgan islohatlar YUNESKO ni o'zaro yuqorida qayd etib o'tilgan tamoyillarga asoslangan demokratik tashkilotga aylanib turli mafkuradagi davlatlar o'rtasida kurash maydonidan hozirgi davrdagi jahonning dolzarb muammolarini hal qilishga qaratilgan xalqaro maydonga aylandi, deb xulosa chiqarish mumkin.

1.2 YUNESKO DOIRASIDA YURITILGAN HUQUQIY IJODKORLIK XIZMATLARI.

Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarning o'zni yana shu bilan ham belgilanadiki, unda umumjahon manfaatlariga xizmat qiladigan huquqiy me'yorlar mujassamlashgandir.

Hozirgi kungacha inson manfaatlarini ko'zlab ko'plab xalqaro hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular universal va mintaqaviy xarakter kasb etadi. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 70ga yaqin, evropa Kengashi tomonidan 160 dan ziyod, YUNESKO tomonidan 70 dan ortiq, evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti tomonidan 30 dan ortiq, turli mintaqaviy xalqaro tashkilotlar tomonidan ham ko'plab inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, deklaratsiyalar, paktlar qabul qilindi. Bugungi kunda hammasi bo'lib inson huquqlari bo'yicha 400 ga yaqin xalqaro hujjat mavjud²⁰.

Bu xalqaro hujjatlarda inson huquqlariga oid jahon andozalari belgilab qo'yilgan va ularning milliy qonunlardan ustuvorligi tamoyili aksari davlatlar tomonidan tan olingan. BMT ni xalqaro hukumatlararo tashkilotlari tizimi xalqaro huquqiy tizimning taraqqiyotiga huquqni vujudga keltirish jarayonida ishtirok etish orqali ta'sir qilmoqda. Huquqni vujudga keltirish keng qamrovli kategoriya, o'ziga bir necha bosqichlarni qamrab olgan va ular ko'yidagilardan iborat²¹:

1) huquqiy normalarni paydo bo'lishi zaruriyatlarini vujudga keltiruvchi ijtimoiy omillarni o'rganish;

2) huquqiy normalar mohiyatini tashkil etuvchi tartib-koydalarni shakllantirish;

²⁰ *Устав ЮНЕСКО. /Международные нормативные акты ЮНЕСКО. М.:Логос 1993*

²¹ *Qarang: Ta'lim va madaniyat masalalari bo'yicha BMT Ustavi./ YUNESKO xalqaro me'yoriy hujjatlari to'plami. T.: Adolat 2004, B-16*

3) bu koydalarni majburiy sifatida va xalqaro huquqiy majburlar choralari bilan himoyalashga muvofiq tan olish.

Shu bilan birga qayd etish lozim, xalqaro huquqda tartib koydalarni rasmiylashtirish yozma shaklda, shuningdek xalqaro munosabatlar ishtirokchilarni ma`lum bir amaliyoti ko`rinishi sifatida ham amalga oshirilishi mumkin. Xalqaro tashkilotlarning huquq ijodkorlik jarayoni ularni huquqiy normalarni tuzishiga, ularning o`zgartirish yoki bekor qilishiga yo`naltirilgan faoliyatini qamrab oladi. Shuni e`tiborga olish lozimki, hech qaysi xalqaro tashkilot Universal tashkilotlar ham «qonunchilik» vakalatiga ega emas. Ya`ni xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan tavsiya, koidalar va shartnomalar loyhalarda mavjud bo`lgan har qanday normalar birinshidan davlatlar tomonidan xalqaro-huquqiy norma sifatida tan olinishi lozim, ikkinchidan norma ushbu davlatlar uchun majburiy bo`lishi lozim.

BMT tizimida xalqaro tashkilotlar uzining huquqiy layoqatligini xalqaro ommaviy huquq normalarini yaratish orqali amalga oshiradi. 1986 yilgi davlatlar va xalqaro tashkilotlar o`rtasidagi shartnomalar huquqi to`g`risidagi Vena konventsiyasining 6-moddasiga binoan, xalqaro tashkilotlarning bo`lgan huquqiy layoqati ushbk tashkilotlar koidalarda belgilanib ko`yiladi²².

Xalqaro tashkilotlarning huquq ijodkorligi funktsiyasi ikki hil toifada ko`rinadi:

- birinchidan ular davlatlarning norma yaratish jarayonida ishtirok etadilar;
- ikkinchidan esa ularning o`zi xalqaro munosabatlar ishtirokchilari uchun majburiy bo`lgan tartib koidalarni shakllantiradi²³.

²² O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 1998. 144-bet.

²³ Международное право в документах: Учеб.пособие. Сост.: Н.Т.Влатова, Г.М. Мелков. – 2-е изд., перереб. и доп. – М.: Инфра, 1997. С-103.

YUNESKO huquq ijodkorlik faoliyatining asosiy bosqichlari ko'ydagilardan iborat:

1) YUNESKO nizomida ko'rsatib o'tilgan vazifalardan kelib chiqib adolat, qonuniylik va inson huquqlarining umum hurmatini ta'minlashda ta'lim, fan va madaniyat sohasida xalqlar hamqorligini va xavfsizlikni mustahkamlashga ko'maklashish uchun tashkilot o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlari va shakllari orasida yuqoridagi maqsadlarda xalqaro bitimlarni tuzishini tavsiya etadi;

2) Xalqaro hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish. Bu jarayonda hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish uch kategoriyaga bo'linadi:

— Bosh konferentsiya tomonidan qabul qilinadigan konventsiyalar va tavsiyalar;

— Bosh konventsiya qabul qiladigan boshqa normativ hujjatlar (konventsiya va tavsiyalardan tashqari), deklaratsiyalar, nizomlar, qoidalar va statuslar, rezolyutsiyalar va hakoza;

— YUNESKO ning faqat o'zi yoki boshqa xalqaro tashkilot bilan birgalikda qatnashadigan davlatlar konferentsiyalari qabul qiladigan hujjatlar.

3) YUNESKO da ishlab chiqiladigan xalqaro hujjatlarning huquqiy darajasi belgilanadi:

— YUNESKO ning Bosh konferentsiyasi qabul qilganidan sung davlatlarda ratifikatsiya qilinish kerak bo'lib va ma'lum bir sohaga tegishli ravishda o'rnatilgan reglamentga nisbatan davlatlar hoqishi va majburiyatini aks ettiruvchi xalqaro konventsiyalar.

— davlatlarga tavsiyalar- bu hujjatlarda, bir tomondan kontseptsiyalar, tamoyillar va miyorlarni shakllantirib, har bir alohida mamlakatning o'z hoqishiga ko'ra qonunchilik yo'li bilan, yoki ularni hayotga tadbiq etish uchun boshqacha xarakterda yo'naltirish kerak, boshqa tomonda esa ularda keyinchalik yuqori huqiqiy daraja asosida, majburiy m'yorlar va qoidalar xalqaro konventsiyalarda o'naltirilgan mezonlar belgilanadi.

4) Konventsiyani qabul qilish to'g'risida qarorni Bosh konferentsiya kiritadi, buning uchun a'zo davlatlarning uchdan ikki qismi ko'pchiligi avozi talab etiladi.

Tavsiyalar nisbatan Bosh konferentsiyag`a ularga nisbatan qabul qilingan a`zo davlatlarning oddiy ko`pchilik ovozi talab etiladi.

YUNESKO Nizomining VIII moddasiga asosan har bir a`zo davlat tashkilotiga Bosh konferentsiya belgilangan muddatda va shaklda IV moddaning 4-bandida ko`rsatib o`tilgan konvetsiyalar va tavsiyalarning bajarilishlari yuzasidan ma`ruzalar taqdim etadi²⁴.

Hozirda YUNESKO ning norma ijodkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish bilan birga, ushbu hujjatlarning qattiyligini ham kuchaytirish zarur deb xisoblaydi. Chunki YUNESKO hujjatlarini taqlil qilganimizda ushbu hujjatlarning ishlash mexanizmi samaradorligini etarli ravishda kuch bilan ta`minlanmaganligini ko`ramiz.

Hozirgi kunda O`zbekiston Respublikasi YUNESKO ning ko`yidagi muhim xalqaro hujjatlariga ko`shilgan²⁵;

1. 1954 yil 14 maydagi qurolli majoralar vaqtida madaniy boulinlarni himoya qilish to`g`risidagi Gaaga Konvetsiyasi;

2. 1960 yil 10 noyabrdagi ta`lim sohasidagi kamsitishga qarshi Konvetsiyasiga;

3. 1966 yil 14 noyabrdagi xalqaro madaniy hamqorlik printsiplari Deklaratsiyasi;

4. 1970 yil 14 noyabrdagi madaniy boyliklarni qonunaviy ravishda olib kelish, olib ketish va unga egalik huquqini birovga topshirishni ta`qiqdash va ogohlantirish chora- tadbirlari to`g`risidagi Konvetsiya;

5. 1971 yil 2 fevraldagi asosan suvda suzuvch qushlarni yashash joyi sifatida xalqaro ahamiyatga molik suv botqan maydanlari to`g`risidagi Konvetsiyasi;

²⁴ *Устав ЮНЕСКО. /Международные нормативные акты ЮНЕСКО. М.:Логос 1993*

²⁵ *O`zbekiston milliy entsiklopediyasi. 1998. 144-bet.*

6. 1972 yil 16 noyabrdagi Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muqofaza qilish umumjahon Konventsiyasi;

7. 1989 yil 10 noyabrdagi texnikaviy va hunar ta'limi to'g'risidagi Konventsiyasiga;

8. 1995 yil 16 noyabrdagi Bag'rkenglik tamoyillari Deklaratsiyasi va hakoza.

Xulosa qilib shuni qayd etib o'tish mumkinki, YUNESKO ning norma ijodkorlik faoliyati YUNESKO faoliyati doirasida huquqiy rivojlanishga katta xissa ko'shmoqda va uning hujjatlarini xalqaro munosabatlarni tartibga solishda o'ziga xos mavqeyni egallaydi.

II-BOB: WO`ZBEKISTONNING YUNESKO BILAN HAMKORLIK ALOQALARINING O`RNATILISHI

2.1. Wo`zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lishi.

Xalqaro tashkilotlar to'g'risida fikr yuritganimizda Birlashgan Millatlar Tashkilotining o'ni va roliga to'xtalib o'tish ayniqsa muddao bo'lar edi. Ushbu tashkilot to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islam Karimov BMSH Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi nutqida «Birlashgan Millatlar Tashkiloti barcha elatlarning, mintaqalarning eng muhim muammolarini muhokama qilish va echish uchun tuzilgan nayob tashkilotdir»²⁶ deb atab o'tgandi.

Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo'lib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati, uni jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi nufuzli davlatlar tan oldi, ularning 120 tasi bilan diplomatik siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Toshkentda 43 mamlakatning elchixonasi ochildi. Bular jumlasiga AQSh, Turkiya, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston Pokiston va boshqalarni kiritish mumkin. Shuningdek, O'zbekistonda 88 xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Dunyodagi 30 dan ortiq davlatda - AQSh, Turkiya, Germaniya, Frantsiya, Xitoy, Pokiston va boshqalarda O'zbekistonning elchixonalari va konsulliklari ishlab turibdi.

O'zbekiston Respublikasi o'zining xohish irodasi va taklifiga ko'ra 1992 yil 2 martda jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilot - Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining to'la teng huquqli a'zosi bo'ldi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993 yilda bo'lgan 48-sessiyasida ishtirok etishi va unda 27 sentyabrda qilgan ma'ruzasi

²⁶ *Islam Karimov \BMSH Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi nutqi. \Xalq so'zi. 1993 .N27(49)*

O'zbekistonni jahonga qo'hna va yosh navqiron davlat sifatida namoyon etdi²⁷. O'zbekiston Respublikasi nomidan Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMT ning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa macalalap bo'yicha bir qator takliflar o'rta qo'yildi.

1993 yil 24 oktyabrda Toshkentda BMT ning vakolatxonasi ochildi va u ish boshladi. O'zbekiston rahbariyati va BMT rahbarlarining sa'y-harakatlari natijasida O'zbekiston BMTning Xalqaro telekommunikatsiya uyushmasi, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi, Qochoqlar ishi bo'yicha oliy ko'mitasi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti, Xalqaro atom energiyasi agentligi, Aholi joylashish jamg'armasi, Narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqqiyoti tashkiloti, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti singari ixtisoslashgan muassasalarga a'zo bo'ldi. O'zbekistonning tashabbusi bilan va BMT rahnamoligida 1995 yil 15-16 sentyabr kunlari Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan Toshkent kengash-seminari bo'lib o'tdi. Xalqaro kengashda ishtirok etgan 31 davlat va 6 xalqaro tashkilotdan kelgan muxtor vakillar mintaqa xavfsizligining, mojarolarning oldini olish, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishning ishonchli tizimini barpo etish masalalari yuzasidan o'z fikrlarini, takliflarini aytdilar. Kengash yakunlari yuzasidan qabul qilingan Bayonot jahon xalqlarini, xususan Markaziy Osiyo xalqlarini, turli siyosiy kuchlarni mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga, iqtisodiy va ekologik hamkorlik tizimlarini barpo etishga chaqirdi. O'zbekistonning BMT bilan hamkorligining yorqin sahifalaridan yana biri Markaziy Osiyo mintaqasini yadro kurolidan xoli zonaga aylantirish masalasida o'z ifodasini topdi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasi minbaridan turib so'zlagan nutqida Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish g'oyasini ilgari surgan edi. O'zbekistonning bu tashabbusi xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

²⁷ Q.Usmanov, M.Sodiqov, S.Burxanova «O'zbekiston tarixi» (Darslik) T., «Iqtisod-moliya» 2006. 458-bet

1997 yil 15-16 sentyabr` kunlari Toshkentda "Markaziy Osiyo -yadro qurolidan xoli zona" mavzuida xalqaro konferentsiya bo`lib o`tdi. Uning ishida 56 davlat va 16 xalqaro tashkilotdan vakillar ishtirok etdi. Ushbu masala yuzasidan Markaziy Osiyo mamlakatlari tashqi ishlar vazirliklarining Bayonoti imzolandi²⁸. Markaziy Osiyo mintaqasining yadro qurolidan xoli zonaga aylanishi mazkur mintaqa xavfsizligini mustahkamlaydi.

2000 yil oktyabr` oyida Toshkentda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, giyohvand moddalar tijorati, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurash mavzusida xalqaroo konferentsiya bo`lib o`tdi. O`zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2001 yilda BMT Xavfsizlik Kengashining terrorizmga qarshi kurash bo`yicha maxsus qo`mitasi ta`sis etildi. 2002 yil 18-20 oktyabr` kunlari BMT Bosh kotibi Kofe Annanning O`zbekistonga tashrifi mamlakatimizning xalqaro jamiyatdagi o`rni mustahkamlanib, obro`-e`tibori ortib borayotganining dalilidir.

«Fuqarolik va siyosiy huquqlar to`g`risidagi xalqaro pakt» ning BMT Bosh Assambleyasi 1989 yil 15 dekabrda qabul qilgan o`lim jazosini bekor qilishga qaratilgan ikkinchi Fakul`tativ bayonnomasi barcha hukumatlarni o`lim jazosini bekor qilishga va bu haqda mazkur bayonnomani imzolashga chorlaydi²⁹.

Hozirgi kunda ushbu Bayonnomaga 61 mamlakat qo`shilgan. Har bir davlat Bayonnomani ratifikatsiya qilish yoki unga qo`shilish chog`ida o`lim jazosi faqat urush holati vaqtida o`ta og`ir harbiy jinoyat sodir etganlarga qo`llanishi mumkinligi haqida eslatib o`tiladi.

Inson huquqlari to`g`risidagi xalqaro hujjatlarning o`rni yana shu bilan ham belgilanadiki, unda umumjahon manfaatlariga xizmat qiladigan huquqiy me`yorlar mujassamlashgandir. Hozirgi kungacha inson manfaatlarini ko`zlab ko`plab

²⁸ Q.Usmanov, M.Sodiqov, S.Burxanova «O`zbekiston tarixi» (Darslik) T., «Iqtisod-moliya» 2006. 458-459 bet

²⁹ Устав ЮНЕСКО. /Международные нормативные акты ЮНЕСКО. М.:Логос 1993

xalqaro hujjatlar qabul qilingan bo`lib, ular universal va mintaqaviy xarakter kasb etadi.

Jumladan, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 70ga yaqin, evropa Kengashi tomonidan 160 dan ziyod, YUNESKO tomonidan 70 dan ortiq, Evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti tomonidan 30 dan ortiq, turli mintaqaviy xalqaro tashkilotlar tomonidan ham ko`plab inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar, konventsiyalar, deklaratsiyalar, paktlar qabul qilindi. Bugungi kunda hammasi bo`lib inson huquqlari bo`yicha 400 ga yaqin xalqaro hujjat mavjud³⁰.

Bu xalqaro hujjatlarda inson huquqlariga oid jahon andozalari belgilab qo`yilgan va ularning milliy qonunlardan ustuvorligi tamoyili aksari davlatlar tomonidan tan olingan.

³⁰ Международное право в документах: Учеб.пособие. Сост.: Н.Т.Влатова, Г.М. Мелков. – 2-е изд., перереб. и доп. – М.: Инфра, 1997. С-103.

2.2. O`ZBEKISTONNING BMT HOMIYLIGIDAGI XALQARO TASHKILOT – YUNESKO BILAN ALOQALARINING ORNATILISHI.

YUNESKO bilan hamkorlik O`zbekistonning BMT homiyligidagi ta`lim, fan va madaniyat bilan shug`ullanuvchi xalqaro tashkilot – YUNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. 1993 yil 29 oktyabrda YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida O`zbekistonni YUNESKO ga a`zolikka qabul qilish marosimi bo`ldi. O`sha kuni Ulug`bek tavalludining 600 yilligini nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi.

1994 yil oktyabrda Parijda Ulug`bek haftaligi tantana bilan o`tdi. Xiva va Buxoro YUNESKO ning jahon madaniy qadriyatlar ro`yxatiga kiritildi. Bu ro`yxatda 411 ta ob`ekt bor<sup>31</sup>. 1994 yil dekabrda respublikamizda YUNESKO ishlari bo`yicha O`zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi tashkil etildi, u idoralararo organ bo`lib, tarkibiga ta`lim, fan, madaniyat va axborot sohasidagi vazirliklar va idoralardan 49 kishi a`zo bo`ldi.

YUNESKO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o`rganish, tiklash va ommalashtirishga katta ahamiyat bermoqda. "Ipak yo`li - muloqot yo`li" deb nomlangan yirik tadqiqotda Markaziy Osiyoga birinchi darajali ahamiyat berildi<sup>32</sup>. 1995 yil iyul` oyida YUNESKO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi. YUNESKO Bosh direktori Federiko Mayorning O`zbekistondagi rasmiy tashrifi chog`ida 1995 yil iyul` oyida mazkur institut ochildi. YUNESKO bobomiz Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qildi va 1996 yil oktyabr`da Parijda Amir Temurga bag`ishlangan bir haftalik xalqaro anjuman bo`lib o`tdi. Amir Temur tavallud topgan Shahrisabz shahri YUNESKOning madaniy qadriyatlar ro`yxatiga kiritildi.

³¹ *Международное право в документах: Учеб.пособие. Сост.: Н.Т.Влатова, Г.М. Мелков. – 2-е изд., перереб. и доп. – М.: Инфра, 1997. С-103.*

³² *Q.Usmanov, M.Sodiqov, S.Burxanova «O`zbekiston tarixi» (Darslik) T., «Iqtisod-moliya» 2006. 460 bet*

1997 yilda jahon madaniyatning durdonalaridan hisoblangan Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik muborak sanalari Parijda keng nishonlandi, xalqaro anjuman va ko'rgazmalar o'tkazildi. Bu O'zbekiston bilan BMTning nufuzli xalqaro tashkiloti YUNESKO o'rtasidagi hamkorlikning yana bir yorqin ifodasi bo'ldi. 1997 yil 19-20 oktyabr kunlari Vatanimizda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan ulkan tantanalarda BMT, YUNESKO va boshqa ko'plab xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning elchilari va vakillari, bir qator mehmonlar ishtirok etdilar³³.

O'zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar -Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, Xalqaro bolalar jamg'armasi (YUNISEF), Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo'yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro Olimpiada qo'mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlarning a'zosi, ular bilan hamkorlik qilmoqda. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga, uning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuviga xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar - Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, evropa tiklanish va taraqqiyot banki ham ko'maklashmoqdalar. Xalqaro savdo markazi (YUNKTAD), Tariflar va savdo Bosh bitimi (GATT) bilan hamkorlik qilinmoqda³⁴.

YUNESKO ning maqsadi insoniyatning aql-zakovati va ahloqiy birligiga asoslangan barqaror tinchlikni barpo etish bo'lib, u eng muhim insonparvarlik masalalariga ijodiy yondashadigan o'ziga xos, betakror xalqaro tashkilot hisoblanadi. Uning faoliyati dunyo madaniyatini rivojlantirishga, barqaror taraqqiyot va inson taraqqiyoti uchun xalqaro ilmiy dasturlar tuzishiga ko'maklashadi, milliy madaniyatlarning ravnaq topishiga yordam beradi. Dunyaviy meros hisoblangan moddiy va ma'naviy boyliklarni saqlash va ko'paytirishga, shuningdek, axborotlar oqimi va matbuotni erkin taraqqiyo

³³ O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. - T.: Sharq, 2000.

³⁴ Q.Usmanov, M.Sodiqov, S.Burxanova «O'zbekiston tarixi» (Darslik) T., «Iqtisod-moliya» 2006. 460 bet

etishga yordam beradi, rivojlanayotgan davlatlarda kommunikatsiya imkoniyatlarini oshirishga ko'maklashadi.

Hozirda YUNESKO ning norma ijodkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish bilan birga, ushbu hujjatlarning qattiyligini ham kuchaytirish zarur deb xisoblaydi. Chunki YUNESKO hujjatlarini taqlil qilganimizda ushbu hujjatlarning ishlash mexanizmi samaradorligini etarli ravishda kuch bilan ta'minlanmaganligini ko'ramiz.

YUNESKO doirasida ishlab chiqilgan va qabul qilingan xalqaro hujjatlarga O'zbekistonning ko'shilishi madaniy booyliklarimizning jahon hamjamiyati tomonidan xalqaro huquqiy himoya qilinishiga, O'zbekistonning ilmiy potentsiali, fani, madaniyati, tariyxiy dasturlari, nayob arxeologik va me'moriy majmualarini, milliy va ma'naviy durdonalarini targ'ib qilishga va bu sohadagi ishlarining samaradorligini oshirishga keng imkoniyatlar ochib berish bilan birga ushbu sohaga tegishli qonunchiligimizning yanada rivojlanishiga, shuningdek, O'zbekistonda ta'lim, fan, madaniyat, informatika va kommunikatsiya texnologiyalarining yanada taraqqiyot sari rivojlanib, jahondagi eng ilg'or va nufuzli davlatlar qatoridagi o'z o'rnida muhkamal qolishiga yordam beradi.

YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi vazirlar mahkamasining 1994 yil 29 dekabrda N629-sonli qarori asosida tashkil topgan³⁵. Komissiyasining asosiy maqsadi va vazifalari, faoliyati va molyaviy mablag'lari bo'yicha axborot muassasaning nizomida aks ettirilgan³⁶.

YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi vazirlar mahkamasi xuzurida tashkil etilgan xukumat tashkiloti hisoblanadi. Tashkilotning ushbu tuzilmasi vazirlik va idoralar o'rtasidagi hamqorlik samaradarligini va o'zaro qllab-quvatlashni ta'minlaydi hamda komissiyaning turli xil milliy va xalqaro nodavlat tashkilotlari bilan faoliyatini muvofiqlashtirishda yordam beradi.

³⁵ Toshkent sh., Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29 dekabrda 629-son qaroriga 2-ILOVA

³⁶ *Birlashgan Millatlar tashkiloti. Toshkent-2011. 176-177 bet*

Milliy komissiya tuzilganidan buyon, u YUNESKO dastur va loyihalarini amalga oshirish, ushbu tadbirlarga milliy salohiyatni jalb qilish hamda YUNESKO vakolati doirasida milliy, minaqaviy va xalqaro hamqorlikni rivojlantirishga katta qissa ko`shib kelmoqda.

Asosiy maqsadi, vazifalari: Milliy komissiyaning asosiy maqsadi O`zbekiston Respublikasida YUNESKO dasturlarini ishlab chiqishni va amalga oshirishini muvofiqlashtirish bo`lib, uning zimmasiga ko`yidagi vazifalar yuklatilgan:

- YUNESKO tadbirlarida va loyihalarda O`zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tashkilotlari va mutaxassisliklarining ishtiroki to`g`risida YUNESKO ning kotibiyatiga hamda minaqaviy vakolatxonalariga takliflar tayyorlash va taqdim etish;

- Ta`lim, fan, madaniyat va axborot sohasida xalqaro, minaqaviy va ikki tomonlama hamqorlikni rivojlantirish masalalari bo`yicha YUNESKO ning minaqaviy vakolatxonalarini va markazlari bilan muntazam ravishda muzokaralar o`tkazish;

- O`zbekiston Respublikasi xududida va jahon miqyosida YUNESKO tadbirlarini tayyorlash va o`tkazishga ko`maklashish;

- YUNESKO tomonidan tashkil etiladigan Bosh anjuman hamda boshqa xukumatlararo tadbirlarini tayyorlashga va o`tkazishga ko`maklashish;

- YUNESKO dasturlarini ishlab chiqish va bajarishda O`zbekiston Respublikasining davlat va nodavlat tashkilotlarni jalb etish;

- YUNESKO kotibiyatida va minaqaviy vakolatxanalarida ishlash uchun respublika mutaxassislari zaxirasini tayyorlash;

 YUNESKO vakolati doirasida xalqaro hamqorlikni kengaytirish³⁷.

Tarkibi: Milliy komissii umumiy majlis va kotibiyatdan tashkil topgan bo`lib, komissiyaning raisi ta`lim, sog`liqni saqlash va ijtimoiy muhofaza masalalari,

³⁷ O`zbekiston milliy entsiklopediyasi. Toshkent, Davlat amaliy nashriyoti- 2005.
318-319 bet

axborot tizimlari va telekommunikatsiya bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'ribosari hisoblanadi. Umumiy majlis Oliy Majlis Senat iva Qonunchilik palatasi, tegishli vazirlik va idoralar (shu jumladan, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri, Xalq ta'limi vaziri, Madaniyat va sport ishlari vaziri, Fanlar akademiyasi raisi, Badiiy akademiya raisi, Aloqa va axborotlashtirish agentligi Bosh direktorii, Milliy teleradiokompaniya raisi, Milliy axborot agentligi Bosh direktori), hokimiyatlar, uyushmalar, jamg'armalar, markaziy muassasalar, nodavlat tashkilotlar vakillaridan iborat. Ma'sul kotib tomonidan boshqariladigan kotibiyat Komissiyasining doimiy faoliyat ko'rsatadigan muassasasi hisoblanadi va quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'z faoliyatini olib boradi:

- **Ta'lim sohasida** - «Ta'lim barcha uchun» dasturi, barqaror taraqqiyot ta'limi, inklyuziv ta'lim, YUNESKO ning birlashgan maktablar tarmog'i, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi ta'lim, jamoat ta'limi markazlari, kasb-xunar o'quv muassasalari tarmog'i (YuNeVOK), sog'lom turmush tarzi ta'limi;

- **Fan sohasida** – MOST (Ijtimoiy islohatlarni boqarish) dasturi, bioetika dasturi, «Inson va biosfera» dasturi, xalqaro gidrologiya dasturi, Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti, qayta tiklanadigan energiya manbalari, fan ta'limi, aniq fanlar, falsafa;

- **Madaniyat sohasida** – madaniy moddiy va nomoddiy meros;

- **Kommunikatsiya va axborot sohasida**- «Axborot barcha uchun» dasturi, «Jahon xotirasi» dasturi.

XX asrning oxiri XXI asrning boshlaridagi jahon siyosiy xaritada o'zgarishlar va tashkilotda amalga oshirilayotgan islohatlar YUNESKO ni o'zaro yuqorida qayd etib o'tilgan tamoyillarga asoslangan demokratik tashkilotga aylanib turli mafkuradagi davlatlar o'rtasida kurash maydonidan hozirgi davrdagi jahonning dolzarb muammolarini hal qilishga qaratilgan xalqaro maydonga aylandi, deb xulosa chiqarish mumkin.

III-BOB: O'ZBEKISTONDA YUNESKO TASHKILOTINING XALQARO ALOQALARNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI O'TKAZILGAN TADBIRLARI:

3.1. ILM, FAN, MADANIYYAT, KOMMUNIKATSIYA VA AXBOROT.

BMT tomonidan qabul qilingan «Ta'lim barcha uchun» (2000-2015 yy.), Savodxonlik o'n yilligi (2002-2003 yy.) va barqaror taraqqiyot ta'limi o'n yilligi (2004-2015 yy.) dasturlari ta'lim sohasidagi asosiy yo'nalishlar hisoblanadi. YUNESKO tashkiloti ushbu dasturlarni amalga oshirish bo'yicha etakchi tashkilot hisoblanadi.

Oliy ta'lim (1998 yil, 2009 yil), kasb-xunar ta'limi (1999 yil) va katta yoshdagilar ta'limi (1997 yil, 2009 yil) bo'yicha YUNESKO tomonidan xalqaro anjumanlar tashkil etilgan va maxsus tavsiyanomalar qabul etilgan.

YUNESKO kafedralari: YUNESKO kafedralari dasturi 1991 yilda boshlangan. Mazkur dasturning asosiy mqsadi- oliy ta'lim muassasalarida maxsus tadqiqotlarni rivojlantirish hamda xalqaro miqyosda mazkur fan sohasida mutaxassislarning bilm va tajriba almashuvini ko'llab-quvvatlash. Hozirgi paytda, Milliy komissiya ko'magida ko'yidagi 10 ta YUNESKO kafedrasi O'zbekistonning oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan.

1. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti qoshidagi «Fizika va astronomiya» YUNESKO kafedrasi (1998y.);

2. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti qoshidagi «Inson huquqlari, tinchlik, demokratiya, bag'rikenglik va xalqaro hamjihatlik» YUNESKO kafedrasi (1998 y.);

3. Samarkand Davlat me'morchilik qurilish instituti qoshidagi «Tarixiy markazlarni saqlash va boshqarish» YUNESKO kafedrasi (1999 yil);

4. Samarkand iqtisodiyot va servis instituti qoshidagi «Avtomatlashgan axborot texnologiyalari» nomli YUNESKO kafedrasi (1999 yil);

5. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti qoshidagi «Fuqoralik va qadriyatlar ta'limi» YUNESKO kafedrasi (1999 yil);

6. Toshkent Islom Universiteti qoshidagi «Jahon dinlarining qiyosiy tadqiqoti» YUNESKO kafedrası (1999 yil);

7. Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxora tibbiyot instituti qoshidagi «An`anaviy tibbiyot» YUNESKO kafedrası (2000 yil);

8. Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Universiteti qoshidagi «Ekologik kimyo» YUNESKO kafedrası (2003 yil);

9. Kamoloddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti qoshidagi «San`at boshqaruvi va marketing» YUNESKO kafedrası (2004 yil);

10. Toshkendagi Xalqaro Vestminster universiteti qoshidagi «Bilmlar iqtisodiyoti» YUNESKO kafedrası (2004 yil).

2008 yilda Toshken shahrida YUNESKO kafedralari mutaxassislari uchun mashg`ulotlar tashkil etildi. Toqqizta YUNESKO kafedrasiga Milliy komissiya tomonidan, YUNESKO qatnashuv dasturi doirasida, maxsus komp`yuter uskunalari taqdim etildi. YUNESKO kafedralari har yil o`z faoliyati bo`yicha yillik hisobotni Milliy komissiyaga taqdim etadi va ushbu hisobotlar YUNESKO kotibiyatiga yuboriladi.

KASB-XUNAR O`QUV MUASSASALARI TARMOG`I (YUNEVOK):

2004-2006 yillarda O`zbekistonda YUNESKO ning «Kasb-xunar ta`lim sohasidagi ko`chma guruhi» loyihasi amalga oshirildi. O`zbekiston mutaxassislari kasb-xunar ta`limi sohasida Avstraliya, Koreya Respublikasi va Tayland kabi davlatlar tajribasini o`rganishga muvaffiq bo`lishdi. Loyiha doirasida O`zbekiston viloyatlarida o`kuv seminarlar hamda «Ijtimoiy hamqorlik va ko`chma kasb-xunar ta`lim guruhi» mavzusidagi ilmiy anjuman tashkil etildi. Anjumanda o`zbekistonli mutaxassislarning hisobati taqdim etildi va kasb-xunar ta`limi sohasida xorijiy mamlakatlar tajribasini tadbqiq etish masalalari kurib chiqildi. Ushbu tadbirlarning davomi sifatida, evropa ittifoqining TESIS dasturi doirasida 2006-2007 yillar davomida «Kasb-xunar ta`limi sohasida ijtimoiy hamkorlik» loyihasi O`zbekistonda amalga oshirildi. Loyihaning ustuvor maqsadidan biri O`zbekiston kasb-xunar ta`limi sohasida (boshqaruv va o`qitish jarayonlarida) yangi siyosatni joriy etish.

YUNESKO BIRLASHGAN MAKTABLAR TARMOG'I³⁸: 1953 yilda asos solingan YUNESKO ning Birlashgan maktablar dasturi tarmog'i YUNESKO ning ta'lim sohasidagi asosiy dasturi hisoblanadi. Dasturning asosiy maqsadi xalqaro hamjihatlik, tinchlik, madaniyatlararo muloqat va barqaror taraqqiyot g'oyalarini targ'ib etish hamda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. Ushbu tarmoqni O'zbekistonda rivojlantirishda YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi faol ish olib bormoqda. 1996 yildan tarmoqqa O'zbekistonning 45 ta ta'lim muassasasi (o'rta ta'lim maktab, akademik litsey va kasb-xunar kollejlari) a'zo bo'lgan. Ta'lim muassasalari bir kator xalqaro dasturlarda muvaffaqiyatli qatnashib, «Ta'lim barcha uchun» maqsadlarini va BMT ning barqaror taraqqiyot ta'limi o'n yilligini targ'ib etib kelmoqda. «Barcha uchun umr bo'yi ta'lim», «Fan-taraqqiyot xizmatida», «Madaniyat taraqqiyoti: meros va ijod» kabi dasturlar va ma'muriy xarajatlarga sarflandi.

Birlashgan maktablar tarmog'i doirasida O'zbekiston maktablari YUNESKO ning turli dasturlarida faol qatnashib kelmoqda. Ulardan «Patrimonito», «Mondialgo» va o'quvchilar almashuv dasturlari. Birlashgan maktablar tarmog'iga a'zo Zarafshon shahridagi 1-sonli ixtisoslashgan maktabi 2006 yilda YUNESKO ning Mondialogi maktab tanlovida g'olib deb topildi.

2006 yil da Toshkent shahridagi 17-son maktabi «Barqaror taraqqiyot ta'limi» mavzusidagi YUNESKO ning Osiyo va tinch okeani mintaqasi tanglovida g'olib dep topilib, maxsus faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

YUNESKO ning «Suv va tabiiy manbalarni boshqarish» (Toshkent shahridagi 17-son maktab) va «Sahroda oazis yaratish» (Zarafshon shahridagi 1-sonli ixtisoslashgan maktab) loyhasi YUNESKO ishlari bo'yicha Koreya Respublikasi Milliy komissiyasi Osiyo va Tinch Okeanii mintaqasida barqaror taraqqiyot ta'limi doirasida 2009 yilning eng ilg'or tajriba loyihalari deb topildi.

³⁸ «O'zbekiston va YUNESKO hamkorligi izchil rivojlanmoqda». Ma'rifat gazetasi. 2012-yil 3-noyabr, N87 (8528), 2,4-betlar

YUNESKO nashrlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, tarmoq maktablari orasida tarqatildi³⁹:

- «Butunjahon merosi yoshlar qo'lida»;
- «Bag'rikenglik –tinchlik sari olg'a qadam»;
- «Demokratiya: 80 savolga 80 javob»;
- «Har bir inson» va hakoza.

O'zbekistonda ta'lim tizimiga yangi innovatsion uslublarni joriy etish maqsadida bir qator o'quv seminarlar o'tkazildi:

■ «Ta'limda boshqaruv va axborot tizimlari» mavzusidagi milliy seminar (2005 yil dekabr`);

■ Osiyo va Tinch okeani mintaqasi YUNESKO madaniy markazi bilan hamkorlikda «Inklyuziv ta'limni joriy etish uchun bolalar bog'chasi va o'rta ta'lim maktablarida sinov guruhlarini shakllantirish» bo'yicha o'quv kurslari (2006-2007 yillar).

■ YUNESKO va YUNISEF qo'shimcha FRESH loyhasi doirasida «Ta'lim muassasalarida sanitariya va gigiena» mavzusidagi o'quv seminarlar (2005 yil noyabr`, 2007 yil sentyabr` oylarida);

■ Xalq ta'lim vazirligi, YUNESKO ning toshkentdagi vakolatxonasi, YUNISEF ning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan «Ta'lim barcha uchun» harakat dasturining o'rta muddatli tahlili bo'yicha milliy forum (2006 yil 18 avgust)

Loyihaning davomi sifatida 2007 yilning 10-12 sentyabr kunlari Toshkent shahrida inklyuziv ta'lim bo'yicha Markaziy Osiy mintaqaviy seminari o'tkazildi.

MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM: 1997 yilda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimi joriy etildi. Ushbu islohatlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 1998 yildan boshlab Jamoat ta'lim markazlari (JTM) nomli YUNESKO loyhasi O'zbekistonda

³⁹ O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. Toshkent, Davlat amaliy nashriyoti- 2005. 318-319 bet

amalga oshirilishi boshlandi. Loyiha YUNESKO ning Osiyo va Tinch okeani mintaqasi «Ta`lim barcha uchun» dasturi doirasida qo`llab-quvvatlangan edi. Hozirgi davrda O`zbekiston Respublikasining 9 viloyati hamda Qoraqalpog`iston Respublikasidagi Birlashgan maktablar tarmog`i a`zo bo`lgan muassasalar qoshidagi 10 ta jamoat ta`lim markazlari tashkil etildi.

YUNESKO ning Bangkokdagi vakolatxonasi hamda Xalq ta`limi vazirligi bilan hamkorlikda «Aholining imkoniyatlarini kengaytirish uchun axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish», «Hayot ko`nikmalari ta`limi» va «OITV va OITS ni oldini olish» bo`yicha ta`lim dasturlari 1999-2006 yillarda amalga oshirildi. Loyhalar doirasida mul`timediya o`quv dasturlari yaratildi va tegishli muassasalarga tarqatildi, hamda ushbk mazudi milliy anjumanlar tashkil etildi.

2004-2005 yillarda YUNESKO qatnashuv dasturi doirasida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida katta yoshdagilar ta`limi markazini tashkil etish qo`llab-quvvatlandi. Markaz tomonidan, 2004-2005 yillarda katta yoshdagilar uchun o`quv dasturlari tashkil etildi va to`rtta o`kuv qo`llanma ishlab chiqildi va nashr etildi⁴⁰.

FAN: YUNESKO ning fan dasturi doirasida bioloik turfaxillikni asrash va tabiiy manbalrdan oqilana foydalanish, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni qo`llab-quvvatlash, madaniy qadriyatlarni rivojlantirishga bag`ishlangan loyhalar amalga oshirildi. O`zbekistonda YUNESKO ning ko`yidagi xalqaro dasturlari bo`yicha milliy ko`mitalar, jamoatchilik asosida, tashkil etidi:

- Xalqaro gidrologiya dasturi;
- «Inson va biosfera»;
- «Bioetika, Most (Ijtimoiy islohatlarni boshqarish)».

TABIIY FANLAR: 1999 yilda Budafesht shahrida o`tkazilgan Fan bo`yicha xalqaro anjuman uchun mintaqaviy harakat dasturini ishlab chiqish maqsadida 1998 yilning 21-22 oktyabr kunlari Toshkent shahrida «Fundamental fanlar jamiyat xizmatida» mavzusidagi mintaqaviy 25 nafar olim ishtirok etdi.

⁴⁰ *Birlashgan Millatlar tashkiloti. Toshkent-2011. 176-177 bet*

O'zbekiston mutaxassislari fan sohasidagi ko'yidagi YUNESKO uchrashuv va anjumanlarida muvaffaqiyatli ishtirok etdilar:

■ Fan bo'yicha Osiyo va Tinch okeani mintaqasi anjumani (1998 y. Sidney, Avstraliya);

■ Fanda gender tengligi va adolatlik bo'yicha evropa mintaqaviy anjumani (1998 y. Sloveniya);

■ Ijtimoiy fanlarning dolzarb muammolari bo'yicha Osiyo va Tinch okeani mintaqasi maslahat uchrashuvi (2001 y. Bangkok, Tailand);

■ Barqaror taraqqiyot uchun fan va texnologiya siyosati bo'yicha xalqaro forum (2005 y. Tehron, Eron);

■ Ilmiy va texnologik bog'larni rivojlantirish bo'yicha Osiyo va Tinch okeani mintaqasi seminarii (2005 y. Bangkok, Tailand) va hokozalar.

MADANIYAT: Ozbekiston va YUNESKO ha'mkorlikda madaniy – ma'riyfiy merosni qayta tiklash masallarida ham moqiyatli ishlar amalgam oshirilmoqda. YUNESKO bilan hamkorlikda tuzilgan bytmalar asosida buyuk allomalarimiz, mutafakkir va davlat arboblari, shoir va diniy ta'limot nomayondalarining yubeley jaqon miqyosida keng nishonlanmoqta. Bu borada: 1994yil – Buyuk munajjim va davlat arbobi Mirzo Ulug'bekning 600 yillik tavalludi keng jamoatshilik tarzida utkazildi. 1996 yil – Buyuk davlot arbobi, sarkarda, ma'naviyat va madaniyat hazinasiga ulkan qissa kushgan alloma soxibkiron Amir Temur tavalludinig 660 yilligin nishonlandi. Bu tadbir natiyjalari haqida mashqulotlarimizning yuqoridagi mavzularida bayon etgan edik.

1997yil – Qadim va doimo navqiron Buxoro va Xiva shaxarlarimizning 250 yilligi nishonlandi. 1998 yil – Buyuk munajjim va faylasuf, jamoat arbobi Axmad Farg'oniyining 1200 yilligi, 1998 yil –Buyuk Xadisshunos olim, islomshunos alloma Imom al – Buxoriy tavalludinig 1255 yilligi, 1999 yil – Markaziy Osiyo va Sharq halklarining sunmas ijodi bulmish «Alpomish» dostoninig 1000 yilligi, 2000 yil – Sharq halqlari minyatyura maktabining asoschisi, musavvir Kamoliddiyn Bexzodning 545 yilligi., 2001 yil – Markaziy Osiyo xalqlari iyjodi maxsuli bulmish muqaddas «Avesto» yaratilganinig 2700

yilligi, 2001 yil – Qadimiy Termiz shaqrining 2500 yilligi katta tantanalar bilan nishonlab kelindi.

Barchamizning quvontiradigan ha'mda vokibligimizning bayon etadigan diqqatli tadbirlar qatori ko'plab Sharq allomalarining nodir va noyob asarlari uzbek va xorijiy tillarda nashr etildi. Imom al – Buxoriy, Axmad al – Fargoniy, Muxammad at – Termiziy, Burxonidding Margiynoniy, Imom Abu Mansur Motiyrudiy, Muxammad az – Zamaqshariy, Amir Temur, Mirzo Ulugbek, Muxammad Bobur, Sharofiddin Aliy Yazdiy Kamoloddin Behzod va boshqalarning mumtoz asarlaridan bahramand bo'liqdamiz. E'tiborli tadbirlar qatorida 100 dan ortiq yirik yodgorlik-me'moriy muzey va tarixiy madaniy majmualar qayta tiklandi va yangidan qurilganligi madaniy yuksalishimizning yaqqol namunasidir⁴¹.

Mustaqilligimiz qadimiy an'anaviy bayrom va boshqa turdagi milliy qadriyatlarimizni yangidan tiklashga sharoit yaratdi. Yangicha, mustaqillik madaniyatini qurishga zamin barpo etildi. Bular turkumiga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi mustaqillik kuni;
- Konstitutsiya- bosh qomusimiz kuni;
- O'qituvchilar va murabbiylar kuni;
- Navruz milliy bayramimiz;
- Vatan ximoyachilari kuni;
- Xotira va qadirlash kuni;
- Ramazan va qurban qaytlari kabi bayram va tantanalar nishonlanmoqda.

Bu borada diniy qadriyatlarimizning qayta tiklanishi, Toshkent Islom Universitetining ochilishi O'zbek davlat Konservatoriyasining milliy bezak hamda jahon standartlari andozalariga xos ravishda bunyod etilishi, Buyuk Britaniya hamqorligida Toshkent Vestminstir Universiteti da faqat ingliz tilida olib

⁴¹ O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. -T.: Sharq, 2000.

boriladigan o`quv tizimida Respublikamizning turli viloyatlaridan qabul qilingan iqtidorli talabalar taqsim ko`rayotganligi diqqatli dir. Hozirgi kunimizda O`zbekistonda 1800 dan ortiq masjid-jome` va xonaqalarning faoliyat ko`rsatishi 15 turdagi islomiy diniy tashkilotlarning rasman ishlab turishi diqqatga sazovar dir. An`anaga aylanib qolgan «Xalqaro bog`rikenglik kuni» ning har yili 16 noyabrda nisholanishi mustaqillik va istiqlol madaniyatining namunasi dir. O`zbek xalqining azaldan o`z mustaqil fikri, o`z istiqloli uchun kurashib kelganligiga guvoqlik beradi.

Mustaqillik yillarda eski Termiz yodgorliklari majmuidagi buddaviylik monastrlaridan biri Fayoztepani saqlash, qisman ta`mirlash va obidani sayyohlik markaziga aylantirishi borasida muhim ishlar amalga oshirildi. Fayoztepada 2004-2006 yillar davomida O`zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi, Yaponiya Trast fondi, YUNESKO hamqorligida Fayoztepada buddaviylik monastri arxeologik jihatdan qayti urganildi va qisman ta`mirlandi. Ayniqsa obida yonida sayyohlarga muljallangan mu`jaz binoning barpo etilishi va unda Fayoztepa haqida ko`rgazmalarning namoyish etilishi eski Termizni sayyohlik maskaniga aylantirishda muhim bo`ldi. Eski Termiz nafaqat arxeologiya, balki m`emoriy inshootlarni ham o`zida mujassam etgan qadimiy shahardir.

2006 yildan buyon Surxondaryo viloyati hokimligi O`zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi loyhasi asosida al –Hokim at-Termeziy mahbarasi majmuida tubdan ta`mirlash va abadanlashtirish ishlari olib borilmoqda. Eski Termiz xududida amalga rshirilgan bu kabi ishlar bu qadimgi shaxarni xalqaro sayyoxlik maskanlarining biriga aylantirishda muhim bosqich bo`lib xizmat qiladi.

Har yili 14 fevralda a`naviy ravishda mumtoz shoir tavvaludiga bog`ishlab mamlakatimiz boburshunoslari, oliygoh, kolledj va litseylar talabalri hamda Bobur iqlosmandlari ishtirokida u tavvalud topgan Andijon shahrida ilmiy badiiy anjuman o`tkaziladi. Fond qoshida tashkil etilgan xalqaro ilmiy ekspeditsiya 1992 yil may oyida o`zining birinchi safariga chiqqan edi.

Shu kungacha ekspeditsiya 15 maratoba 30 dan ortiq xorijiy davlatlarga xalaro safarlar uyushtirib, Afrika qit`asidan Hind-Xitoy yarim oroli, evropa, Amerika

mamlakatlarga 400 ming km.dan ortiq masofa avtomashina va qisman samolyotda bosib o'tib, vatanimizdan etishib chiqqan buyuk ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy-madaniy meroslarni o'rganib kelmoqda.

YUNESKO bochiligida xalqaro miqyosda o'tkazilgan tadbirlar⁴²:

**** 1993 yil 29 oktyabrda YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida Ulug'bek tavalludining 600 yilligini nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi.***

**** 1993 yil 11 dekabr- YUNESKO ning qarori bilan Xiva va Buxora jahonning madaniy qadriyatlar tizimiga kiritildi.***

**** 1995 yil iyul oyida YUNESKO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi.***

**** YUNESKO bochiligida xalqaro miqyosda bobomiz Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlashga qaror qildi va 1996 yil oktyabrda Parijda Amir Temurga bag'ishlangan bir haftalik xalqaro anjuman bo'lib o'tdi.***

**** Amir Temur tavallud topgan Shahrisabz shahri YUNESKOning madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi.***

**** 1997 yilda jahon madaniyatning durdonalaridan hisoblangan Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik muborak sanalari Parijda keng nishonlandi, xalqaro anjuman va ko'rgazmalar o'tkazildi.***

**** 1998 yil Axmad Ferganiy tavalludining 1200 yilligiga bag'ishlangan marosim o'tkazildi***

**** 1999 yil Alpamish dostonining 1000 yilligi nishonlandi.***

**** 1999 yil Jalaladdin Manguberdi tavalludining 800 yilligi nishonlandi.***

**** 2001 yil «Avesto» muxaddas kitobining 2700 yillig'i nishonlandi.***

⁴² «O'zbekiston va YUNESKO hamkorligi izchil rivojlanmoqda». Ma'rifat gazetasi. 2012-yil 3-noyabr, N87 (8528), 2,4-betlar

*** 2001 yil mart oyida - YUNESKO Bosh direktori qarori bilan «Shaharlar-tinchlik uchun» tanglovida jahonning o`nta shahari g`olib deb topildi. Ular orasida Buxora shahari ham bor edi.**

NOMODDIY MADANIY MEROS⁴³: Nomoddiy madaniy meros sohasidagi ko`yidagi tadbirlar YUNESKO bilan hamkorlikda o`tkazilgan:

- ✓ «Fol`klorni va an`anaviy madaniyatni saqlash» bo`yicha mintaqaviy anjuman (Toshkent, 1998 y.);
- ✓ 2002-2005 yillarda «Boysun bahori» fol`klor festivallari va «Baysun madaniy merosi» mavzusidagi mintaqaviy ilmiy anjuman (2005 yil);
- ✓ 2005-2007 yillarda amalga oshirilgan Boysun madaniy makoni va Shashmaqon musiqasi bo`yicha hujjatlashtirish loyhalari;
- ✓ 2004-2005 yillarda YUNESKO ning qatnashuv dasturi doirasida «ipak yo`li hikoyalari» va «Ipak yo`li rivoyatlari» kitoblari chop etildi;
- ✓ Har yili xalqaro ona tili kunni nishonlashga bag`ishlangan davra suhvatlari tashkil etiladi;
- ✓ Nomoddiy madaniy merosni saqlash bo`yicha shaharlararo hamkorlik tarmog`i muvofiqlashtirildi;
- ✓ Katta ashula (2009 y.);
- ✓ Navruz (2009 y.);
- ✓ «Baymun mintaqasi madaniy muhiti» (2001 y.).
- ✓ «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali va hakoza.

«Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali: O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islam Karimov tashabbusi binoan, «Sharq taronalari»<sup>44</sup> xalqaro musiqa festivali 1997 yildan har ekki yil YUNESKO rahnamaligida Samarkand shahrida o`tkazib kelinadi. Ushbu fetival jahonning yirik madaniyat tadbirlaridan biridir.

⁴³ O`zbekiston milliy entsiklopediyasi. Toshkent, Davlat amaliy nashriyoti- 2005. 318-319 bet

⁴⁴ «O`zbekiston va YUNESKO hamkorligi izchil rivojlanmoqda». Ma`rifat gazetasi. 2012-yil 3-noyavr, N87 (8528), 2,4-betlar

Musika festivalining asosiy maqsadlari mumtoz musiqa namunalarini ommaviylashtirish, xalqlarning buyuk an`analarini asrash va kelajak avlodga etkazish, xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirish hamda tinchlik g`oyalarini jahon miqyosida targ`ib qilishdan iborat. YUNESKO tashkiloti mazkur festivalni o`z rahnamoligiga olgan a barcha festival tadbirlarida ishtirok etib kelmoqda. Festival` doirasida, YUNESKO ko`magida xalqaro ilmiy anjumanlar tashkil etish yaxshi an`anaga aylangan.

KOMMUNIKATSIYA VA AXBOROT: «Jahon xotirasi» dasturi 1992 yilda ta`sis etilgan. «Jahon xotirasi» dasturi bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Milliy ko`mitasi Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi qoshida tashkil etilgan. «Jahon xotirasi» dasturining asosiy maqsadi dunyodagi noyob hujjatlarin asrash a ushbu butunjahon merosini keng ommaviylashtirish va undan foydalanishga imkoniyat yaratish. Hujjatli merosni saqlash bo`yicha Markaziy Osiyo mintaqasi birnchi anjumani va «Jahon xotirasi» dasturi xalqaro maslahat ko`mitasining uchunchi uchrashuvi Toshkent shahrida tashkil etildi. O`zbekiston Respublikasining ko`yidagi hujjatli merosi «Jahon xotirasi» dasturining xalqaro ro`yxatiga kiritilgan:

* **MUQADDAS USMON QUR`ONI** (O`zbekiston musulmonlar idorasida saqlanadi);

* **O`ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI QOSHDAGI BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI QO`LYOZMALAR TO`PLAMI.**

YUNESKO ning 2007 yilda qatnashuv dasturi doirasida Navoiy nomidagi O`zbekiston Davlat kutkboxonasida qo`lyozmalar asrash uchun raqamli studiya yaratishda yordam ko`rsatildi.

«Raqamli kutkboxonalarni rivojlantirish: muammolar va yondashuvlar» mavzusidagi milliy anjuman tashkil etildi. YUNESKO Bosh direktori taklifiga binoan O`zbekitson YUNESKO ning «Jahon xaritasi» dasturi xalqaro maslahat qo`mitasi 2005-2009 yillarda a`zo bo`dib tayinlandi.

KOMMUNIKATSIYANI RIVOJLANTIRISH: Kommunikatsiyani rivojlantirish hukumatlararo dasturi axborot vositalarini rivojlantirish va axborot loyhalarini qo'llab –quvvatlash orqali barqaror taraqqiyot va demokratiya g'oyalarini targ'ib etishga yo'naltirilgan. O'zbekiston ushbu dastur loyhalarida faol qatnashib kelgan. 1997 yil Toshkent shahrida Media manbai markazi tashkil etilishi ushbu dastur tomonidan qo'llab-quvvatlangan. 1998-2007 yillar davomida jurnalistikaga oid bir qator o'quv qo'llanmalar ishlab iqildi va nashr etildi.

«Jurnalistlar uchun innovatsion treninglar va o'quv dasturlar» doirasida bir qator o'quv treninglar tashkil etildi. Jumladan, «Axborot tayyorlashning nazariyasi va amaliyoti», «Internet jurnalistika», «Internetda mualliflik huquqlari», «Zamonaviy jurnalistika», «O'zbekistonning mul'timedia axborot bazasi» va boshqalar.

O'zbekistonda 3 may kuni matbuot erkinligi kuniga bag'ishlangan davra suhbatlari Ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qullab-quvvatlash jamg'armasi bilan hamkorlikda tashkil etiladi. YUNESKO ning Toshkentdagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda yoshlar orasida «Ipak yo'li» radio seriali loyhasi muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

O'zbekiston YUNESKO ning «Markaziy Osiyoda masofaviy ta'lim» mintaqaviy loyhasida faol qatnashib kelega'n. Loyhaning asosiy maqsadi oliy ta'lim muassasalarining elektron portallarni rivojlantirish, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim sifatini oshirish

«AXBOROT BARCHA UCHUN» DASTURI⁴⁵: «Axborot barcha uchun» dasturining asosiy maqsadi- bilm jamiyatini barpo etish. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi «Axborot barcha uchun» dasturi 2000 yilda ta'sis etilgan. «Axborot barcha uchun» dasturining milliy ko'mitasi O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi qoshida tashkil etildi. O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi tashabbusi asosida 2003 yildan buyon, Toshkent shahrida «Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari»

⁴⁵ *Birlashgan Millatlar tashkiloti. Toshkent-2011. 176-177 bet*

mavzusidagi sammitlar har yili tashkil etilmoqda. Mazkur sammitlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2008 yilning 23-24 oktyabr kunlari Toshkent shahrida «Yangi raqamli texnologiyalar sohasida global hamkorlik» mavzusida YUNESKO forumi tashkil etildi. Forum yangi raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi, ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlash masalalariga bag'ishlangan edi. Ushbu YUNESKO Forumi natijasi bo'yicha 2009 yilning 11 may kuni O'zbekiston Milliy Universiteti va Koreya politexnika universiteti o'rtasida «Raqamli texnologiyalar asosida masofaviy ta'limni rivojlantirish» bo'yicha hamkorlik Memorandumi imzolandi.

2009 yilda YUNESKO Bosh direktorii o'ribosari taklifiga binoan, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori Moskva shahridagi YUNESKO ning «Ta'lim sohasida informatika» nomli xalqaro instituti boshqaruv kengashiga a'zo bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha BMT ga 1993 yil 26 oktyabr kuni Parij shahrida o'tkazilgan YUNESKO Bosh anjumanining 27 sessiyasida qabul qilingan.

YUNESKO va O'zbekiston Respublikasi hukumati o'rtasida birinchi memorandum 1995 yil 25 avgust kuni YUNESKO Bosh direktorii Federiko Mayorning O'zbekistonga tashrifi doirasida imzolangan. Toshkent shahrida YUNESKO vakolotxanasini ochish to'g'risidagi shartnoma 1996 yil 23 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islam Karimovning Parij shahridagi YUNESKO Bosh qarorgohiga rasmiy tashrif doirasida imzolangan.

1995-2009 yillarda O'zbekiston Respublikasi YUNESKO ning ko'yidagi ko'mitalariga saylangan:

— 1995-1997 yy. YUNESKO Bosh qarorgohi ko'mitasi⁴⁶;

— 1995-2005 yy. «Markaziy Osiyo tsivilizatsiyalarining tarixi» xalqaro ilmiy ko'mitasi;

— 1997-2001 yy. YUNESKO Ijroiya kengashi;

⁴⁶ *Birlashgan Millatlar tashkiloti. Toshkent-2011. 176-177 bet*

— 1999-2001 yy. Orol dengizi muammolari bo'yicha ilmiy-maslahat ko'mitasi;

— 1999-2001 yy. YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyalar doimiy ko'mitasi;

— 1999-2000 yy. Dinlararo muloqot bo'yicha xalqaro maslahat ko'mitasi;

— 2001-2005 yy. Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonalarini e'lon qilish xalqaro hay'ati;

— 2001 yil YUNESKO Bosh anjumani 31 sessiyasining vakolat ko'mitasi;

— 2001-2005 yy. Kommunikatsiyani rivojlantirish hukumatlararo ko'mitasi;

— 2005 yil YUNESKO Bosh anjumani 33-sessiyasining Madaniyat komissiyasi;

— 2005-2009 yy. Ijtimoiy o'zgarishlar boshqaruvi (MOST) dasturining hukumatlararo kengashi;

— 2007 yil YUNESKO Bosh anjumani 34-sessiyasining Yuridik ko'mitasi;

— 2009-2013 yy. YUNESKO Ijroiya kengashi.

O'zbekiston hozirgi paytda jahonga yuz tutmoqda, xalqaro maydonda o'z abro'siga egadir.

Dunyoning eng nufuzli tashkilotlarida samarali faoliyat ko'rsatmoqda va dunyo saflaridan o'z o'rnini muvaffaqiyatli egallamoqda. Mana shu paragrafda O'zbekistonda YUNESKO tashkiloti tomonidan ilm, fan, madaniyat va kommunikatsiya sohasining rivojlanishi bwyicha o'rganilgan, taqlil qilingan va berilgan ma'lumotlar bu masalaning ayqin dalili bo'lib hisoblanadi.

**3.2. O'ZBEKISTONDA YUNESKO
TOMONIDAN TARIXIY OBIDALARNI
SAQLAB QOLISH VA NAYOB
O'BEKTLARNI O'RGANISHDAGI
HAMQORLIK ISHLARI.
«ASRLAR SADOSI» FESTIVALINING
O'TKAZILISHI.**



Madaniy va tabiiy merosni aniqlash, muhofaza qilish va saqlash YUNESKO faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

YUNESKO ning jahon merosi durdonalari ro'yxatiga qadimiy Samarkand, Shaxrisabz, Buxoro shahrining tarixiy markazi, Xivadagi Ichanqal'a majmui kiritilgan bo'lib, tashkilot ularni dunyuga tarannum etishda mahim o'rin tutmoqda⁴⁷.

O'zbekiston Respublikasida 2005 yilning 25-26 noyabr` kunlari Toshkentda Ikko Xiroyama nomidagi xalqaro karvon-saroyda «markaziy Osiy mintaqasida tarixiy madaniy merosni tiklash muammolari. Rivojlantirishning asosiy tamoyili» deb nomlangan xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Anjuman Fond Forum, O'zbekiston badiiy akademiyasi, YUNESKO, «Chegarasiz restavratorlar» xalqaro tashkiloti hamqorligida o'tkazildi. Maqsad esa tarixiy-madaniy merosni tiklash sohasida jahon tajribasini o'rganish, mazkur sohada yangi yo'nalishlarni kashf etish, Markaziy Osiyo xududida mintaqaviy restavratsiya markazini tashkil etish, shuningdek, sohada hakorlik aloqalarini rivojlantirish. Anjumanda jahonning turli davlatlaridan soha mutaxassislari, ular orasida Gretsiya, Turkiya, Frantsiya, Bolgariya, Rossiya, Qozoiston va boshqa mamlakatlarning xalqaro tashkilotlari rahbarlari va olimlar ishtirok etishdi. Anjuman chkunlariga ko'ra, Markaziy Osiyo

⁴⁷ «O'zbekiston va YUNESKO hamkorligi izchil rivojlanmoqda». Ma'rifat gazetasi. 2012-yil 3-noyavr, N87 (8528), 2,4-betlar

mintaqasida restavratsiya markazina Toshkentda ochish bo'yicha deklaratsiyaga imzo chekildi.

YUNESKO va Fond Forum ko'magida 2006 yilning 20-aprel kuni Toshkentda mashhur kulollar sulolasi Rahimovlarning ilk kulolchilik maktabi ochildi.

2007 yilning mart oyida Parijda «O'zbekiston madaniyati va sa'nati forumi» jamg'armasining vakolatxonasi ochilishi va jamg'arma BMT ning ta'lim, fan, madaniyat sohasidagi tashkiloti YUNESKO bilan «Anglashuv memorandumini» imzolandi. Ikala tomon uchun bunday muhim qadam samarali xalqaro hamkorlik natijasi, shuningdek, ikki tashkilotning yagona maqsadlar sari, fan, ta'lim va madaniyat rivojiga xissa qo'shish uchun birlashganidan dalolat berardi.

O'zbekistonda tarixiy obidalarni saqlab qolishda YUNESKO tashkiloti bilan xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi hozirgi kunda o'ziga xos natijalarni bermoqda. Agar Samarkandni «Sharq Durdonasi», Buxorani «Buxoroi sharif» deb nomlashsa, unda Toshkent Markaziy Osiyodagi eng go'zal shahar- deb nomlanishiga haqlidir. U xududning eng yirik shahari bo'lib, o'zida hozirgi zamonaviy inshootlar bilan birga sharqona me'morchilikni mujassamlashtirgan.

XI asrda Toshkent haqida usha davrning yirik tadqiqotchi olimlari bo'lmish Abu Rayxon al-Beruniy va Maxmud Qashg'ariy o'z asarlarida ma'lumot berishgan.

BMT qoshidagi YUNESKO va islom konferentsiyasi tashkiloti qoshidagi ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha muassasasi AYSESKO tomonidan mamlakatimizning bosh shahri – Toshkentning 2007 yilda Islom madaniyatining poytaxti deb e'lon qilindi.

Samarkand haqli ravishda «Islom olamining qimmatbaho gavxari», «Sharq durdonasi» deb nomlanadi. Uning tarixi Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Al-Xorazmiy, Rudakiy, Umar Xayyom, Jomiy, Navoiy kabi ulug' ulamo olimlar va shoirlarning nomlari bilan chambarchas bog'lik. Aniq fanlar va qurilish ishlarining yutug'i ko'rgazmali madaniyatni juda tez rivojlantirishga olib keldi. Bu

ayniqsa Amir Temur va Temuriylar hukumuronlik qilgan davrida o'z rivojlanish cho'qqisiga erishgan.

Hozirgi kunga kelib Registon maydonini uchta ajoyib inshootlar, ya'ni Ulug'bek, Sherdor va Tillakori madrasalari bezab turadi. Afrosiyob shaxarchasi qirligida joylashgan Samarkand Shoxi Zinda makbaralar ansambli butun Markaziy Osiyo arxitektura inshootlarining faxri hisoblanadi. Amir Temur buyrug'i bilan Gurii Amir makbarasi ham bunyod qilingan. Bu qurilish boshlanishiga 1403-yil Sohibqironning sevimli nabirasi Muxammad Sultonning bevaqt ulumi sabab bo'ldi.

Qadimdan musulmon olamida Buxoroni Buxoroi Sharif deb nomlashgan. Shahar 2500 yillik tarixiga ega. Masalan, ulkan Ark saroyi mil.avv. IV asrda bunyod etilgan. Shaharning eng ko'zga ko'rinadigan arxitektura ansambli bu labi Xovuzdir. Bu er markazida joylashgan va 1620 yilda qazilgan xovuz bo'lgani uchun Labi Xovuz deb nomlangan. Ansamblga ajoyib arxitektura yodgorliklari bo'lgan Ko'kaldosh madrasasi, Xonaka va Nodira Davon Begi madrasalari kiradi.

Markaziy Osiyoning buyuk daryosi bo'lgan Amudaryoning ko'yi qismida, qit'aning ulug' cho'llari bo'lmish Qoraqum va Qizilqum oraligida Xorazm joylashgan. YUNESKO tomonidan qo'riqlanadigan yodgorliklar qatoriga yaqinda 2500 yilligi nishonlangan Shaxrisabz ham kiritilgan. Shahar tog' yon bag'rida ko'kalamzorliklarga boy joyda joylashgan. Kulolchilik va xalq amaliy san'ati bo'lmish to'quvchilikning qadimgi markazi hisoblanadi.

2007 yilning 7 may kuni YUNESKO ning Parijdagi vakolatxonasida Samarkandning 2750 yilligi hamda Marg'ilonning 2000 yilligi munosabati bilan tadbir bo'lib o'tdi. Jumladan, «Jahon tamaddunida Samarkand va Marg'ilonning roli» deb nomlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazilib, unda o'zbek va evropalik olimlar ishtirok etishdi.

2008 yil 18-22 fevral kunlarida jamg'arma vakili YUNESKO nomoddiy madaniy merosini qo'riqlash hukumatlararo ko'mitasining Bolgariyada o'tkazilgan navbatdagi sessiyasida kuzatuv kengashi tarkibida ishtirok etdi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jenevadagʻi binosida joylashgan Millatlar Saroyida poytaxtimizning 2200 yilligiga bagʻishlangan «Toshkent: bugun va ertaga» deb nomlangan koʻrgazma ochildi. Loyha doirasida Toshkent suratlari, tasviriy sanʼat koʻrgazmasi, shuningdek, mamlakatimizning taniqli va yosh ijrochilari musiqiy taqdimoti boʻlib oʻtdi⁴⁸.

«ASRLAR SADOSI» ANʼANAVIY MADANIYAT FESTIVALI: Fond Forumning yillik «asrlar Sadosi» anʼanaviy madaniyat festivali xalq anʼanalari va urf-odatlarini, amaliy sanʼat va milliy oshxona, noyob ogʻzaki hamda nomoddiy merosning turfaligini namoyon etdi. 2008 yildan boshlab Festival YUNESKO bilan hamkorlikda mamlakatimizning turli xududlarida, tarixiy va madaniy markazlarida xalq sayllari tarzida oʻtkaziladi. Ushbu xududlarning hat biri avlodlardan avlodga asrb-avaylab etkazilib kelinayotgan noyob maʼnaviy meros, asriy anʼanalarga egadir.

Fonda Forum noyob tarixiy toʻplam «Toshkent: bir shahar tarixi» ni taqdim etgan boʻlib, unda XIX asr oxiridan shu kungacha Toshkent shahri aksi tushirilgan tarixiy va badiiy 400 dan ortiq suratlar jamlangan, Toshkent shahrining 2200 yilligi nafaqat mamlakatimiz, balki jahon miqyosidagi buyuk voqeadir.

Prezidentimiz Islom Karimov taʼkidlaganidek, Vatanimizning oltin ostonasi boʻlgan azim Toshkent bilan butun Oʻzbekiston xalqi haqli ravishda faqlanadi.

Ushbu kengqamrovali loyiha 2007 yilining 16 oktyabr kuni Bosh anjumanning 34-sessiyasida Toshkentning 2200 yiligin nishonlash va bayram tadbirlarida ishtirok etish haqida rezolyutsiyani qabul qilgan YUNESKO bilan hamkorlikda amalga oshirildi.

- Xivadagi qadimiy Ichan-Qalʼa tarixiy-muzey qoʻriqhonasi hududida Fond Forum va YUNESKOning Oʻzbekistondagi vakolatxonasi tomonidan tashkil etilgan «Asrlar sadosi» anʼanaviy madaniyat festival uchinchi marotaba oʻtkazildi.

⁴⁸ «Toshkent Islam madaniyatining poytaxti». (Oliy taʼlimning bakalavriyat va magistratura yoʻnalishi uchun maʼruza matnlari). T., 2007

Festival` 25 ming nafar tomoshubin va 100 nafardan ortiq xorijiy mehmonlarni jamladi. An`anaviy madaniy va ilmiy tadbirlar o`tkazildi.

- yosh rassomlarning «Arastu jumbog`i» deb nomlangan ko`rgazmasi Toshkentda **Style.uz San`at haftaligi** doirasida o`tkaziladi. Qadimgi yunon faylasufi Arastu ijodda ifodalanyotgan jismning o`lcham va shakliy uning real ko`rinishiga mutlaqo mos kelishi kerak, degan nazariyani ilgari surgan. Ko`rgazmaning har bir ishtirokchisi esa Arastuning ushbu qarashini sigir qiyofasida o`zicha ifoda qilgan.

- «Kelajak ovozi» YOTM, EHHT, K.Adenauer nomidagi jamg`arma, BMT Taraqqiyot dasturi, UNESCO, UNFPA tadbir doirasida o`tkazilgan munozaralarda yosh jurnalistlar, hududiy nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari, yoshlar telestudiolari, yoshlarga mo`ljallangan matbuot va internet nashrlar vakillari ishtirok etishadi.

- Fond Forum va YUNESKOning mamlakatimizdagi vakolatxonasi tomonidan tashkillashtirilgan «Asrlar sadosi» an`anaviy madaniyat festivali o`tkaziladi. An`anaviy madaniy va ilmiy tadbirlar qatorida yangi tarixiy ob`ekt taqdimoti; marosimi kabilar bo`lib o`tadi.

- Toshkentda «Inklyuziv ta`limning ijtimoiy strategiyalari» mavzusida xalqaro anjuman o`tkazildi. Ushbu anjuman Ijtimoiy tashabbuslarni qo`llab-quvvatlash fondi, O`zbekiston Maxsus Olimpiadasi, Fond Forum, Oliy va o`rta-maxsus ta`lim vazirligi, Xalq ta`limi vazirligi YUNESKO ning mamlakatimizdagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda tashkil etildi. Anjumandan ko`zlangan maqsad davlat idoralari, jamoat va xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlarni inklyuziv ta`lim muammolarini hal qilish va imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatga intergratsiyalashishi yullarini izlashga safarbar qilishdan iboratdir.

O`zbekiston xalqaro aloqalarni yo`lga qo`yish nuqtai nazaridan va o`z taraqqiyot istiqbollari jihatidan qulay jug`rofiy- strategik imkoniyatlarga ega. Markaziy Osiyoda jug`rofiy-siyosiy jihatdan markaziy o`rin tutgan O`zbekiston ushbu mintaqada kuchlar nisbati va muvozanatini saqlash, barqarorlikni ta`minlash, hamkorlikni

mustahkamlash imkoniyatlariga ega.

2012-yil 5-6 may kunlarida «Asrlar sadosi» anʼanaviy madaniyat festivali Qoraqalpogʻiston Respublikasining Ellikqalʼa tumani Tuproqqalʼa tarixiy-arxeologik estaligida oʻtkazildi.

Shuningdek, 2013 yil 5-6 may kunlari «Asrlar sadosi» anʼanaviy madaniyat festivali Navoyi viloyati Sarmıshsoy tariyx esteliginde oʻtkerildi. Bu estaliklarda oʻtkazilishi bejiz emasdi, sababi bu estkliklar oʻzlarida asrlar sadosini saqlagan ochiq osman osti muzeylari edi.

Mustaqillikning dastlabki kunlarida-yoq Oʻzbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yoʻlni belgilash, jahon hamjamiyatiga qoʻshilish, horijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar oʻrnatish masalalari dolzarb vazifa sifatida koʻndalang boʻlib turardi.

Oʻzbekistonning BMT homiyligidagi taʼlim, fan va madaniyat bilan shugʻullanuvchi xalqaro tashkilot – YUNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib borayotganligi mamlakatimizning xalqaro jamiyatdagi oʻrnining mustahkamlanib, obroʻ-eʼtibori ortib borayotganining yanada bir dalilidir⁴⁹.

Xulosa qilib aytganda, Oʻzbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yoʻlga qoʻyish va rivojlantirish bobida asrlarga arziydigan ishlar amalga oshirildi. Oʻzbekiston oʻzining tinchliksevar, yaxshi qoʻshnichilik, oʻzaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida oʻzining munosib oʻmini egalladi, uning mavqei yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda.



⁴⁹ Q.Usmanov, M.Sodiqov, S.Burxanova «Oʻzbekiston tarixi» (Darslik) T., «Iqtisod-moliya» 2006. 458-bet

XULOSA

O'zbekiston Mustaqil davlat sifatida xalqaro Konventsionalarga va BMT, EXShT, XMT kabi jahonning nufuzli tashkilotlariga a'zo bo'ldi⁵⁰.

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan kunidan boshlab jahondagi nufuzli mamlakatlar bilan davlatlararo alrqalar o'rnatish va uni rivojlantirish yo'lini tutdi, tashqi siyosatning asosiy Oyo'nalishlarini belgilab oldi va BMT ning 15 ixtisoslashgan tashkilotlaridan biri- YUNESKO ga 1993 yilning 29 oktyabrda a'zo bo'lgan edi. O'sha kuni Ulug'bek tavalludining 600 yilligini nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi. 1994 yil oktyabrda Parijda Ulug'bek haftaligi tantana bilan o'tdi. Xiva va Buxoro YUNESKO ning jahon madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi. Bu ro'yxatda 411 ta ob'ekt bor.

1994 yil dekabrda Respublikamizda YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi tashkil etildi, u idoralararo organ bo'lib, tarkibiga ta'lim, fan, madaniyat va axborot sohasidagi vazirliklar va idoralardan 49 kishi a'zo bo'ldi.

YUNESKO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o'rganish, tiklash va ommalashtirishga katta ahamiyat bermoqda. "Ipak yo'li - muloqot yo'li" deb nomlangan yirik tadqiqotda Markaziy Osiyoga birinchi darajali ahamiyat berildi. 1995 yil iyul oyida YUNESKO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi. YUNESKO Bosh direktori Federiko Mayorning O'zbekistondagi rasmiy tashrifi chog'ida 1995 yil iyul oyida mazkur institut ochildi. YUNESKO bobomiz Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qildi va 1996 yil oktyabrda Parijda Amir Temurga bag'ishlangan bir haftalik xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Amir Temur tavallud topgan Shahrisabz shahri YUNESKO ning madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi.

1997 yilda jahon madaniyatning durdonalaridan hisoblangan Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik muborak sanalari Parijda keng nishonlandi, xalqaro anjuman va ko'rgazmalar o'tkazildi. Bu O'zbekiston bilan BMTning nufuzli xalqaro tashkiloti YUNESKO o'rtasidagi hamkorlikning yana bir yorqin ifodasi bo'ldi. 1997 yil 19-20 oktyabr kunlari Vatanimizda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi munosabati bilan

⁵⁰ O'zbekiston: Mustaqillik odimlari. T., O'zbekiston 1995. 45-46 betlar.

bo`lib o`tgan ulkan tantanalarda BMT, YUNESKO va boshqa ko`plab xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning elchilari va vakillari, bir qator mehmonlar ishtirok etdilar.

Respublikamiz Prezidenti Islam Karimov «YUNESKO timsolida eng muhim insonparvarlik masalalarining echimiga ijodiy yondashishda harakatlanuvchi kuch bulib xizmat qiladigan o`ziga xos, betakror xalqaro tashkilotni kuramiz»<sup>51</sup> - degan edi. Shunki, hozirgi kungacha inson manfaatlarini ko`zlab ko`plab xalqaro hujjatlar qabul qilingan bo`lib, ular universal va mintaqaviy xarakter kasb etadi. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 70 ga yaqin, Evropa Kengashi tomonidan 160 dan ziyod, YUNESKO tomonidan 70 dan ortiq, evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti tomonidan 30 dan ortiq, turli mintaqaviy xalqaro tashkilotlar tomonidan ham ko`plab inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar, konventsiyalar, deklaratsiyalar, paktlar qabul qilindi. Bugungi kunda hammasi bo`lib inson huquqlari bo`yicha 400 ga yaqin xalqaro hujjat mavjud. Bu xalqaro hujjatlarda inson huquqlariga oid jahon andozalari belgilab qo`yilgan va ularning milliy qonunlardan ustuvorligi tamoyili aksari davlatlar tomonidan tan olingan⁵². Bitiruv mutaxassislik ishida Vatanimizning milliy istiqlool davridagi YUNESKO tashkiloti bilan aloqalarini kengroq o`rganildi va olingan ma`lumotlar taqlil qilinib kyidagilar tavsiya etiladi. Ta`lim, fan, madaniyat va kommunikatsiya sohalari, shuningdek xalqaro huquqni takomillatirishda BMT homiyligidagi YUNESKO ning roli va ahamiyatini tadbiq etish ko`yidagi nazariy va amaliy xulosalarga kelishga imkon beradi:

1. YUNESKO hozirgi kunda, jahondagi eng yirik, ko`zga ko`ringan tashkilotlardan biri sifatida va nafaqat ta`lim, fan, madaniyat sohasini, balki ushbu sohalar bilan alohador bo`lgan boshqa sohalarni ham qamrab oluvchi xalqaro tashkilotga aylanishi bilan xarakterlanadi.

⁵¹ Karimov I.A. «Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz». 7 jild. T., «O`zbekiston». 1999 yil 205-bet.

⁵² Международное право в документах: Учеб.пособие. Сост.: Н.Т.Влатова, Г.М. Мелков. – 2-е изд., перереб. и доп. – М.: Инфра, 1997. С-103.

YUNESKO ning maqsadi insoniyatning aql-zakovati va ahloqiy birligiga asoslangan barqaror tinchlikni barpo etish bo`lib, u eng muhim insonparvarlik masalalariga ijodiy yondashadigan o`ziga xos, betakror xalqaro tashkilot hisoblanadi. Uning faoliyati dunyo madaniyatini rivojlantirishga, barqaror taraqqiyot va inson taraqqiyoti uchun xalqaro ilmiy dasturlar tuzishiga ko`maklashadi, milliy madaniyatlarning ravnaq topishiga yordam beradi. Dunyaviy meros hisoblangan moddiy va ma`naviy boyliklarni saqlash va ko`paytirishga, shuningdek, axborotlar oqimi va matbuotni erkin taraqqiyo etishga yordam beradi, rivojlanayotgan davlatlarda kommunikatsiya imkoniyatlarini oshirishga ko`maklashadi.

2. YUNESKO ning normativ hujjatlar yaratish jarayonida huquq ijodkorlik faoliyatini ko`yidagi asos bosqichlariga bo`lish mumkin:

➤ birinchidan o`z Nizomida qayd etilgan vazifalardan kelib chiqib, «adolat, qonuniylik va inson huquqlarining umumiy hurmatini ta`minlashda maorif, fan va madaniyat sohasida xalqlar hamqorligini kengaytirish yo`li bilan tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga ko`maklashish» uchun xalqaro bitimlarni tuzishga tavsiya etadi;

➤ ekinchidan, xalqaro hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida ularning kategoriyalarini belgilab beradi:

- Bosh konferentsiya qabul qiladigan konventsiyalar va tavsiyalar;
- Bosh konferentsiya qabul qiladigan boshqa normativ hujjatlar (konventsiyalar va tavsiyalarlardan tashqari) deklaratsiyalar, nizomlar, qoidalar, statuslar, rezolyutsiyalar va hakoza;

➤ YUNESKO ning faqat o`zi yoki boshqa xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda chiqaradigan davlatlar ishtirokida konferentsiyalar qabul qiladigan hujjatlar;

➤ uchinchidan, Konventsiya va tavsiyalarni qabul qilishda tashkilotning har bir a`zosi o`zining mustaqil irodasini aks etiradi va konventsiya uchun Bosh konferentsiyada a`zo davlatlarni uchdan ekki qismi ko`pchilik ovozi, tavsiyalarga esa a`zo davlatlarning oddiy ko`pchilik ovozi talab etiladi.

➤ turtinchidan, Konventsia va tavsiyalarni Bosh konferentsiya qabul qiladigan, unga qo`shilgan barcha davlatlarga har qanday holatda ham ushbu hujjatlarni hayotga tatbiq etish uchun tegishli vakolatlarga ega bo`lgan zaruriy qonunchilik yoki huquqiy choralarni ko`ra oluvchi milliy vakolatli organlarga taqdim etish majburiyati yuklanadi.

3. YUNESKO ning normativ faoliyati to`g`risidagi tadqiqotimiz natijasida ba`zi bir takliflarni o`rtaga tashlashni lozim deb topdik, ya`ni ular ko`yidagilardan iborat:

➤ YUNESKO ning normativ bazasini kengaytirish uchun model qonunlarini kiritish lozim. Jahon miqyosida tan olingan mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan modelli qonunlar, kerakli qonunlar yo`q yoki barin ham yangilash. Tavsiyalarga nisbatan qonunlari ko`proq samarali bo`lib, ular g`oyalardan qonunlarga bo`lgan yo`lni qisqartirishga va umumjahon huquqiy ma`noni ug`unlashuvi uchun asos bo`lib xizmat qilishi mumkin.

➤ Hozirgi kunda axborot texnologiyalarni juda ham tez rivojlanib borayotgan bir paytda, informatika sohasini rivojlantirish YUNESKO ning asosiy faoliyatidan biri bo`lib, YUNESKO doirasida internet tizimini tartibga keltirish bo`yicha alohida xalqaro universal hujjat ishlab chiqish zarur.

➤ Hozirgi kunda YUNESKO norma ijodkorlik sohasida faoliyatini yanada rivojlantirish bilan birga, ushbk hujjatlarni xattiyligini ham kuchaytirish zarur deb xisoblaymiz.

➤ YUNESKO doirasida ishlab chiqilgan va qabul qilingan xalqaro hujjatlarga O`zbekistonning ko`shilishi madaniy booyliklarimizning jahon hamjamiyati tomonidan xalqaro huquqiy himoya qilinishiga, O`zbekistonning ilmiy potentsiali, fani, madaniyati, tariyxiy dasturlari, nayob arxeologik va me`moriy majmualarini, milliy va ma`naviy durdonalarini targ`ib qilishga va bu sohadagi ishlarining samaradorligini oshirishga keng imkoniyatlar ochib berish bilan birga ushbu sohaga tegishli qonunchiligimizning yanada rivojlanishiga, shuningdek, O`zbekistonda ta`lim, fan, madaniyat, informatika va kommunikatsiya texnologiyalarining yanada taraqqiyot sari rivojlanib, jahondagi

eng ilg'or va nufuzli davlatlar qatoridagi o'z o'rnida muhkamal qolishiga yordam beradi;

➤ Fond Forum va YUNESKOning mamlakatimizdagi vakolatxonasi tomonidan tashkillashtirilgan «Asrlar sadosi» an'anaviy madaniyat festivali an'anaviy madaniy va ilmiy tadbirlar qatorida:

- ✓ xalq an'analari,
- ✓ urf-odatları,
- ✓ amaliy san'at,
- ✓ milliy oshxona,
- ✓ noyob og'zaki meros,
- ✓ noyob nomoddiy meros ko'rgazmalari

kabi naminatsiyalar bo'yicha o'tkazilishin ta'minlash va o'larda OO'YU talabalarining qatnashishi;

➤ O'zbekistonning BMT homiyligidagi ta'lim, fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot – YUNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib borayotganligi mamlakatimizning xalqaro jamiyatdagi o'rnining mustahkamlanib, obro'-e'tibori ortib borayotganining yanada bir dalilidir⁵³;

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi, uning mavqei yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda. O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida asrlarga arziydigan ishlar amalga oshirildi.

⁵³ Q.Usmanov, M.Sodiqov, S.Burxanova «O'zbekiston tarixi» (Darslik) T., «Iqtisod-moliya» 2006. 458-bet

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O`zbekiston, 1999.
2. Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. -T.: O`zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. -T.: O`zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. -T.: O`zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo`lidan T.4. -T.: O`zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.5. -T.: O`zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida. T.6. —T.: O`zbekiston, 1998.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. T.7. —T.: O`zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush-pirovard maqsadimiz. T.8.. -T.: O`zbekiston, 2000.
10. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas`ulmiz. T.9. -T.: O`zbekiston, 2001.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmaq kerak. T.10. —T.: O`zbekiston. 2002.
12. Karimov I.A. Biz tanlagan yo`l demokratik taraqqiyot va ma`rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`li. T.11. —T.: O`zbekiston, 2003.
13. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o`z kuch qudratimizga, hamjihatligimiz va qat`iy irodamiz bog`liq. —T.: O`zbekiston, 2004.
14. Levitin L. O`zbekiston tarixiy burilish pallasida. -T.: O`zbekiston, 2001.
15. Buyuk siymolar, allomalar (uch kitob). -T.: Meros, 1995, 1996, 1998.
16. Usmonov Q, Sodiqov M, Oblomurodov N. O`zbekiston tarixi. I qism. O`quv qo`llanma. -T.: Meros, 2002.
17. Usmonov Q. O`zbekistonda parlament taraqqiyotining yangi bosqichi. -T.: G`afur G`ulom, 2004.
18. O`zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O`zbekiston tarixi.

- T.: Sharq, 2000.
19. O'zbekiston tarixi (qisqacha ma'lumotnoma). -T.: Sharq, 2000.
20. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari -T.: Sharq, 2001.
21. O'zbekiston Respublikasi: Mustaqil davlatning bunyod bo'lishi. -T.: O'zbekiston, 1992.
22. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida (Usmonov Q, G'aniev D.). -T.: O'zbekiston, 1994.
23. O'zbekiston: Mustaqillikning 5 yili (Usmonov Q, G'aniev D.). -T.: Sharq, 1996.
24. O'zbekiston: 13 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. (R.Qosimov, Q.Usmonov va boshqalar). -T: O'qituvchi, 2004.
25. G'ulomov S., Usmonov Q. Mustaqillik O'zbekistonga nima berdi. -T.: O'AJBNT, 2000, 2001.
26. G'ulomov S., Salimov O., Usmonov Q., G'aniev D. Asrlarga teng yillar. T.: O'AJBNT, 2001
27. наследие. Духовность. Культура. Народное слово. 7-мая 2013 года, N88 (5732).

Internet mag'liwmatlari:

1. WWW. ziyonet.
2. WWW. lex.uz
3. WWW. leksiya.uz
4. WWW. Asrlar.sodosi.uz.

**Ajiniyoz nomidagi NDPI «Tarix» fakul'tetining tarix mutaxassisligi
4-v kurs talabasi Aminov Umidbekning «Yunesko tashkilotining xalqaro
aloqalarni takomillashtirishdagi roli va ahamiyati (O'zbekiston respublikasi
misolida)» mavzusidagi Malakaviy bitiruv ishiga**


F I K R

Tarix mutaxassisligining 4-v kurs talabasi Aminov Umidbekning «Yunesko tashkilotining xalqaro aloqalarni takomillashtirishdagi roli va ahamiyati (O'zbekiston respublikasi misolida)» mavzusiga oid olib borilgan bo'lib, malakaviy bitiruv ishi Kirish, har bir nechta paragraflardan iborat 3-bobdan, Xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va mavzuga oid ishlangan prezintatsiyadan iborat yozilgan. Kirish qismida mavzuning dolzarvligi, bitiruv ishining maqsad va vazifalari, mavzuning tarixshunosligi, mavzuning ilmiy yangliklari, mavzuning bajarilish usul va metodlari, tadqiqotning nazariy-amaliy ahamiyati, mavzuning tadqiqot ob'ekti, malakaviy ishining aprotatsiyasi, malakaviy ishining tuzilishiga to'qtalib o'tilgan.

Malakaviy bitiruv ishi asosiy boblarida Yuneskoning xalqaro tashkilot sifatida shakillanishi, rivojlanishi va asosiy yo'nalishlari, Yunesko doirasida yuritilgan huquqiy ijodkorlik xizmatlari, O'zbekistonning Birlashgan Millatlar tashkilotiga a'zo bo'lishi, O'zbekistonning BMT homiyligidagi xalqaro tashkilot – YUNESKO bilan aloqalarining ornatiishi, Ilm, fan, madaniyat, kommunikatsiya va axborot, O'zbekistonda YUNESKO tomonidan tarixiy obidalarni saqlab qolish va nayob o'bektlarni o'rganishdagi hamqorlik ishlari, «Asrlar sadosi» festivalining o'tkazilishi kabi yirik masalalarga to'qtadib o'tilgan.

Aminov Umidbekning «Yunesko tashkilotining xalqaro aloqalarni takomillashtirishdagi roli va ahamiyati (O'zbekiston respublikasi misolida)» mavzusidagi Malakaviy bitiruv ishi o'zining mazmuni, tuzilishi undagi boblarning mutonasibligi, hajmi hamda bajarilishi jihatidan DAK va Oliy o'quv yurtlari talabi darajasiga to'la javob beradi. Bu mutaxassislik ishin Davlat attestatsiya komissiyasi ximoyasiga yuborishga va yaxshi baholashga loyiq deb hisoblayman.

Ilmiy rahbar:



t.f.n. T.A.Kud'yarova



Ajiniyoz nomidagi NDPI «Tarix» fakul'tetining tarix mutaxassisligi
4-v kurs talabasi Aminov Umidbekning «Yunesko tashkilotining xalqaro
aloqalarni takomillashtirishdagi roli va ahamiyati
(O'zbekiston respublikasi misolida) » mavzusidagi
MALAKAVIY BITIRUV ISHIGA

T A Q R I Z

NDPI Tarix fakul'tetining tarix mutaxassisligining 4-v kurs talabasi Aminov Umidbekning «Yunesko tashkilotining xalqaro aloqalarni takomillashtirishdagi roli va ahamiyati (O'zbekiston respublikasi misolida)» mavzusiga oid olib borilgan. Malakaviy bitiruv ishi Kirish, har bir nechta paragraflardan iborat 3-bobdan, Xulosa va foydalanilgan adabiyotlar tizimdan iborat. Kirish qismida mavzuning dolzarvligi, tarixshunosligi, yutuqlari va O'zbekiston respublikasida Yunesko tashkilotining xalqaro aloqalarni takomillashtirishdagi roli va ahamiyati masalasi o'rganilgan va qiziqarli ma'lumotlar, faktlar berilip o'tilgan.

Bitiruv mutaxassislik ishida Vatanimizning milliy istiqlol davridagi YUNESKO tashkiloti bilan aloqalarini va uning tarixini yoritishga kengroq o'rin berilgan. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, dunyodagi yirik, rivojlangan mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli siyosiy-diplomatik, iqtisodiy, madaniy aloqalari yoritilgan. O'zbekiston tarixan qisqa muddatda jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallaganligi, global masalalarda o'zining mustaqil ovozigga ega bo'lgan davlat darajasiga ko'tarilganligi vatafsil so'z etilgan.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligina erishgandan keyingi davrdagi O'zbekiston tashqi siyosati, mamlakatimizni xalqaro maydondagi, ayniqsa xalqaro tashkilotlar doyrasidagi faoliyati tabora rivojlanayotgan va o'z navbatdagi uning tashqi siyosatida xalqaro tashkilotlarning ahamiyati, asosan YUNESKO tashkiloti bilan aloqalari ortib borayotgani bilan xarakterlanadi va yangi ma'lumotlar bilan ko'rsatilgan.

Shuningdek YUNESKO tashkiloti tomonidan- Markaziy Osiyo taraqqiyotini o'rganish, tiklash va ommalashtirishga, . "Ipak yo'li - muloqot yo'li" deb nomlangan yirik tadqiqotda Markaziy Osiyoga birinchi darajali ahamiyat berilishi, YUNESKO ning jahon madaniy qadriyatlar ro'yxati dasturiga kiritilgan respublikamizning 411 ta ob'ekti bor ekanligi va bu dasturning bugungi kundagi ijorasini urganish kabi qiziqarli va yirik masalalar haqida so'z etilgan va ko'plab ma'lumotlar berilgan.

NDPI Tarix fakul'teti tarix mutaxassisligining 4-v kurs talabasi Aminov Umidbekning «Yunesko tashkilotining xalqaro aloqalarni takomillashtirishdagi roli va ahamiyati (O'zbekiston respublikasi misolida)» mavzusiga Malakaviy bitruv ishi DAK va Oliy wo'quv yurti talabi darajasida yaxshi yozilgan, mavzuga oid slaydlar berilganligi bitiruv ishining samarasini yaxshilaydi.

Bu mutaxassislik ishin Davlat attestatsiya komissiyasi ximoyasiga yuborishga va yaxshi baholashga loyiqli deb xisoblayman.

Taqriz beruvchi:



**QDU, tarix fanlari nomzodi,
docent. Q.Hakimniyazov**